

IKKI TOMONLAMA VA MINTAQAVIY HAMKORLIKNI YAXSHILASH MASALALARIGA E‘TIBOR QARATILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 13-may kuni Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo‘yicha maxsus vakili Eduards Stipraysni qabul qildi.



YEI maxsus vakili Yevro-kengash Prezidenti Antoniu Koshta va Yevrokomissiya Prezidenti Ursula fon der Lyayenning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Joriy yil aprel oyida Samarqand shahrida o‘tgan “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammitida qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish doirasida ikki tomonlama va mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Investitsiyaviy va moliyaviy-texnik hamkorlik bo‘yicha umumiy qiymati 12 milliard yevrolik aniq loyihalarni tez fursatda tayyorlash va ilgari surishga alohida e‘tibor qaratildi.

Mintaqaviy kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashildi, shuningdek, bo‘lajak tadbirlar rejasi ko‘rib chiqildi.

O‘za

BUNYODKORLIK SOHASIDA SIFAT VA SEYSMIK XAVFSIZLIK MUHIM

Prezident Shavkat Mirziyoyev seysmik xavfsizlikni kuchaytirish chora-tadbirlariga oid takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Mamlakatimizda bunyodkorlik ko‘lami keng. 2017-yildan buyon joylarda 11 ming 410 ta ko‘p qavatli uylar qurilgan. Bu aholini turar joy bilan yetarlicha ta‘minlash, turmush sharoitlarini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Qurilishning asoslaridan biri bo‘lgan seysmologiya sohasi ham rivojlantirilmoqda. Bu borada xorijiy ilmiy markazlar bilan hamkorlik qilib, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishga e‘tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, davlatimiz ko‘p jabhalarda tashabbuskor hamdir.

Ma‘lumki, 1966-yil 26-aprelda Toshkent shahrida vayronkor zilzilga sodir bo‘lgan. O‘zbekiston Prezidenti zilzila qurbonlariga hurmat ko‘rsatish va bu borada xalqaro hamkorlik zarurligini eslatish maqsadida xotira va birdamlik kunini ta‘sis etish tashabbusini ilgari surgan edi. Buning e‘tirofi o‘laroq, yaqinda BMT Bosh Assambleyasi 29-aprelni Xalqaro zilzila qurbonlarini xotirlash kuni, deb e‘lon qilish to‘g‘risida rezolyutsiya qabul qildi.

Bu sohada xalqaro standartlarga mos bo‘lish uchun davlatimiz rahbari yangi qurilayotgan uylarning sifatiga e‘tiborni kuchaytirish vazifasini qo‘ygan edi. Shunga muvofiq, ko‘p qavatli uylarning zilzilaga

bardoshilligini oshirish va aholining seysmik xavfsizligini ta‘minlash choralarini ko‘rilmogda.

Jumladan, davlat loyiha institutlari mutaxassislari ishtirokida joylarda o‘rganishlar o‘tkazildi. Ushbu o‘rganish natijalari va hududlarning seysmik holati tahlili asosida bu tizimni yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi.

Unga ko‘ra, xorijiy mutaxassislar jalb qilingan holda, binolarni o‘rganish bo‘yicha yangi amaliyot yo‘lga qo‘yiladi. Zilzilaga va boshqa tabiiy ofatlarga bardoshli uylarni qurish bo‘yicha tajriba almashish

kengaytiriladi. Binolar instrumental texnik tekshiruvdan o‘tkazilib, kamchiliklar bartaraf etiladi.

Ushbu o‘rganishlar va xorijiy tajriba asosida, seysmik xavfni, ta‘sirini va xatarni baholash yuzasidan me‘yoriy hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritiladi.

Davlatimiz rahbari qurilishda sifat va xavfsizlik birinchi o‘rinda ekanini ta‘kidlab, bu yo‘nalishlarni ilmiy rivojlantirish, sohaga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

O‘za

YOQILG‘I-ENERGETIKA SOHASIDA O‘ZARO MANFAATLI SHERIKLIK KENGAYTIRILADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “O‘zbekiston neft va gaz” xalqaro forumi doirasida Toshkent shahrida bo‘lib turgan Rossiyaning “Gazprom neft” kompaniyasi boshqaruvi raisi Aleksandr Dyukovni qabul qildi.

Rossiyaning yoqilg‘i-energetika sohasidagi yetakchi kompaniyasi bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Neft mahsulotlarini yetkazib berish, qazib

olinishi qiyin bo‘lgan konlarni o‘zlashtirish va sohani raqamlashtirish borasidagi sheriklikni rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rib chiqildi.

O‘za

YO‘L XO‘JALIGIDAGI ISHLAR NATIJADORLIGI TAQDIMOT QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev yo‘l xo‘jaligidagi ishlar natijadorligi va rejadagi loyihalar bo‘yicha taqdimot bilan tanishdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktabrdagi qaroriga muvofiq, bu sohada boshqaruv takomillashtirilib, yo‘llar qurish, ta‘mirlash va saqlash bo‘yicha ko‘p yillik vazifalar belgilangan edi. O‘tgan 2 yilda bu maqsadlarga 26 trillion so‘m ajratilib, jami 40 ming kilometr yo‘l va 540 ta ko‘priklar ta‘mirlandi. Sohaga chetdan jalb qilinayotgan mablag‘lar ham uch karra oshdi.

Lekin hali qilinadigan ishlar ko‘p. Bu yil 7 ming kilometr umumiy foydalanishdagi yo‘l hamda 231 ta ko‘priklar qurish va ta‘mirlash, 13 ming kilometr tuproq ko‘chalarga shag‘al yotqizish, 400 kilometr sement qoplamali yo‘llar qurish, magistrallar bo‘yida 72 ta servis majmuasi tashkil etish rejalashtirilgan.

Taqdimotda mutasaddilar shular haqda axborot berdi.

Yangi loyihalarni belgilashda yo‘llarning hozirgi holati va qatnov darajasiga e‘tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorlikda 1 ming 200 kilometr yo‘lni rekonstruksiya qilish bo‘yicha 6 ta yirik loyiha amalga oshirilmoqda.

Yana 4 ta loyiha boshlanishi ko‘zda tutilgan. Xususan, To‘rtko‘l va Beruniy shaharlarini aylanib o‘tuvchi A-380 magistralini rekonstruksiya qilish, Qoraqalpog‘iston va Xorazmda 516 kilometr mahalliy yo‘llarni to‘la ta‘mirlash, Termiz — Denov hamda Sirdaryo — Baxt oraliq‘idagi yo‘llarni sement-beton qoplamali qilib qurish rejalashtirilgan.

Bu loyihalarga Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki va Osiyo infratuzilimaviy investitsiyalar banki mablag‘lari yo‘naltiriladi.

Davlatimiz rahbari eng muhim masala yo‘llarni sifatli saqlash ekanini ta‘kidladi. Yo‘l bo‘ylarida infratuzilimni rivojlantirib, aholiga qulayliklar yaratish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Qamchiq dovonida statsionar nazorat posti ishga tushirilgan. Buni yuk tashish oqimi yuqori bo‘lgan boshqa yo‘llarda ham tashkil qilish zarurligi qayd etildi.

Shu o‘rinda aytish kerakki, bundan qariyb 20 yil oldin qabul qilingan “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi qonun hozirgi zamon talablariga javob bermayapti. So‘nggi yillardagi islohotlar, bugungi dolzarb masalalar unda aks etmagan.

Shu bois, mazkur qonun yangi tahrirda ishlab chiqilmoqda. Unda, jumladan, “avtomobil yo‘llarini rejalashtirish” mexanizmini joriy etib, yo‘l infratuzilmasini aholi va iqtisodiyotning o‘sib borayotgan ehtiyojlariga mos ravishda rivojlantirish nazarda tutilmoqda. Yo‘llarni loyihalashtirishda aholi fikri va atrof-muhitga ta‘sirini inobatga olish hamda piyodalar uchun to‘siqsiz muhitni yaratish bo‘yicha qat‘iy talablar o‘rnatilmoqda. Kommunikatsiya tarmog‘ini qurishda yo‘lning avvalgi holatini tiklash xarajatlarini qoplash sharti kiritilmoqda.

Pulli yo‘llarning huquqiy asoslari, ajratilgan va yo‘l bo‘yi mintaqalarida servis binolarini joylashtirishga oid talablar belgilanmoqda. Yo‘llarda katta hajmli va og‘ir vaznli transport vositalarining harakatlanishi tartibga solinmoqda.

Taqdimotda mutasaddilar muqobil yo‘llar qurish bo‘yicha xususiy sheriklik loyihalari yuzasidan ham hisobot berdi.

O‘za

KELAJAKNI BUGUN QURAYOTGAN SOHA

Joriy yil 22-aprel kuni davlatimiz rahbari elektrotexnika sanoatida birinchi chorakda qilingan ishlar va navbatdagi vazifalarga oid taqdimot chog‘ida islohotlar samarasida mazkur tarmoq oyoqqa turayotganini ta‘kidlash barobarida hali ishga solinmagan imkoniyatlardan faol foydalanish kerakligini qayd etgan edi.

Bugungi globalashuv sharoitida elektrotexnika tarmog‘i faqat texnik taraqqiyotning emas, balki milliy iqtisodiyot va ijtimoiy farovonlikning muhim tayanch ustuniga aylanmoqda. Kundalik hayotimizda ko‘p ishimiz tushadigan kompyuter tizimlari, internet infratuzilmasi, sun‘iy intellekt, “aqlli” shaharlar, transport va zamonaviy signalizatsiya tizimlari — bularning barchasi elektrotexnika yutuqlariga

► Davomi 4-betda

90 KUNLIK O‘ZGARISH

YANGI TIZIMDA XODIMLAR MAOSHI HAM, INSON QADRI HAM OSHADI

Taraqqiyot odimlari

Uyim darvozidan hovlining narigi tomonidagi ijodxonamgacha bo‘lgan masofa ellik qadam. Agar salt yurish qilsangiz, qirq qadamga yetmaydi. Har kuni kechki ovqatdan so‘ng shu oraliqda bir soat yuraman. Piyoda yurish sog‘liqqa foyda ekanini ta‘kidlamasam ham yaxshi bilasiz. Hozir bu haqda aytilgan gaplarni takrorlab vaqtingizni olmoqchi emasan.

To‘g‘ri, sog‘lig‘imni o‘ylab piyoda yurishni boshladim. Shu bois, birga yurish uchun katta qizim va o‘g‘limni qistovga oldim. Uyimizda sog‘lom turmush tarzi targ‘ib qilay, dedim-da! Qolaversa, yo‘lga chiqsang, yo‘ldoshi chiq deb bejiz aytilmagan. Ammo hozir gap bu haqda emas. Muddao shu: yo‘l — hovlimizdagi ellik qadamlik masofani bosib o‘tish jarayonida anglagan haqiqatlarim, his etgan va ko‘nglimdan tilimga ko‘chayotgan fikrlar haqida gurgunglashsam, deyman.

► Davomi 3-betda

Farmondan ko‘zlangan maqsad ko‘chmas mulkning bozor narxiga yaqin qiymatini aniqlash orqali aholi va tadbirkorlar uchun qulay shart-sharoit yaratishdir. Zero, hozirgi kunda yurtimizdagi 8 milliondan ortiq turar va noturar joy, 7 millionga yaqin yer uchastkasining iqtisodiy aktiv sifatidagi qiymatini aniqlash zarur.

Ommaviy baholash ishlari bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Xususan, 2025-2026-yillarda tajriba tariqasida Toshkent shahrida, 2026-2027-yillarda Nukus shahri va viloyat markazlarida, 2027-yildan qolgan hududlarda bajariladi.

Bu amaliyot mamlakatimiz iqtisodiyoti va fuqarolar turmush tarziga ijobiy ta’sir qiladi. Qanday qilib?

Misol uchun, ko‘chmas mulkni bozor qiymati asosida baholash soliq stavkalarini optimallashtirishda qo‘l keladi. Ko‘chmas mulkka nisbatan shaffof va adolatloli soliq stavkalari o‘rnatilishi hamda soliq yukni kamayishiga olib keladi. Bu esa, o‘z navbatida, budjetdan infratuzilma, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarini rivojlantirishga yo‘naltirilayotgan mablag‘ni yanada oshirish imkonini beradi. Yangi tizim tufayli soliq stavkalari muvofiqlashib, biznes uchun adolatloli sharoit vujudga keladi.

Bozor mexanizmiga asoslangan aniq va tushunarli baholash tizimi mahalliy va xorijiy investorlar uchun ham qulay sharoit yaratadi. Ya’ni ularga xavflarni to‘g‘ri baholash va ko‘chmas mulkka kiritilgan sarmoyalar rentabelligini oshirish imkoniyatini beradi.

Investor uchun to‘g‘ri baholangan ko‘chmas mulk muhim ahamiyatga ega. Agar ko‘chmas mulk obyektlarini baholash tizimi shaffof va raqamlashgan bo‘lsa, ular biznes rejalarini aniq ishlab chiqish va ko‘chmas mulkka sarmoya kiritishda kamroq tavakkalchilik qiladi.

Bu jarayon banklar uchun ham manfaatli. Ya’ni ipoteka kreditlari va tadbirkorlik uchun moliyaviy resurslarni taqdim etish, real xavflarni hisoblab chiqish imkoni oshadi. Banklarning kredit portfli xavf darajasi pasayib, umidsiz qarzdorlik yuzaga kelishining oldi olinadi.

Shu bilan birga, tadbirkorlar o‘z aktivlarini garov sifatida qo‘yib, qo‘shimcha kredit olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu iqtisodiyotga investitsiya oqimini oshirgan holda kichik va o‘rta biznes rivojiga katta turtki beradi.

Qolaversa, qurilish kompaniyalari va developerlar ko‘chmas mulk bahosiga oid integrallashgan ma’lumotlar bazasiga erkin kira olsa, bozordagi real raqamlarga tayangan holda yangi loyihalarni rejalashtirishda samarali qarorlar qabul qilishi mumkin. Bunda ko‘chmas mulkning bozor qiymati qo‘l keladi. Bu esa shaharsozlik va infratuzilma obyektlari rivojlanishi hamda xizmatlar sohasi o‘rinishiga olib keladi.

Ko‘chmas mulk obyektlarini bozor narxiga yaqin qiymatda ommaviy baholash ijara narxlarini bozor sharoitiga moslashtirishga yordam beradi. Bu tadbirkorlar ofis, ombor va ishlab chiqarish binolarini ijaraga olishi yoki berishida, o‘z mulkiga nisbatan narx belgilashida ayni muddaadir.

Jarayonning oddiy fuqarolar uchun foydali jihatlari ham kam emas. Chunki hozirgi kunda ko‘chmas mulk obyektlari narxi aksariyat hollarda bozor qiymatiga asoslanmagan holda shakllanmoqda. Ommaviy baholash tizimi esa bozor qonuniyatlariga asoslangan raqamlashtirilgan baholash mexanizmlarini taqozo qiladi. Mulk egalari o‘z uy-joylarining aniq bozor qiymati muhim.

Bundan tashqari, ayni paytda aksariyat ko‘chmas mulk obyektlarining qiymati real narxidan ancha past baholanmoqda. Ularga solinadigan soliq esa nisbatan baland. Yangi joriy etilayotgan baholash tizimi soliq yuki adolatloli taqsimlanishiga, ya’ni mulk egasining haqiqiy bozor bahosidan kelib chiqib, soliq to‘lashiga sharoit yaratadi.

Yana bir e’tiborga molik jihat. Bugungi kunda aholiga kreditlar ko‘chmas mulkni garovga qo‘yish orqali berilmogda. Agar mulk narxi ochiq va shaffof bo‘lsa, banklar xavf-xatarni aniq baholay oladi hamda ipoteka kreditlarini ancha qulay shartlar asosida taqdim etishi mumkin.

Nihoyat, bu tizim yordamida har birimiz o‘z mulkimiz yoki sotib olishni rejalashtirayotgan uy-joyning haqiqiy bozor bahosini onlayn tarzda bilib boramiz. Bu oldi-sotdi jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nomuvofqliklarning oldini oladi.

Ko‘chmas mulkni ommaviy baholash tizimi nafaqat davlat tomonidan uning qiymatini aniqlash yoki soliq tizimini takomillashtirishga xizmat qilishi, balki fuqarolar va tadbirkorlar uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratishi e’tiborga molik. Tizim fuqarolar uchun adolatloli soliq yuki, mulk-niing aniq bahosi va kredit olish imkoniyatlari yaxshilanishi bilan ahamiyatli bo‘lsa, biznes uchun shaffof bozor muhitini shakllantirib, investitsiya oqimini ko‘paytirishda qo‘l keladi. Kapital bozorini rivojlantiradi.

Farhod MIRZAYEV,
Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar
instituti bosh mutaxassisi

E’tirof

Mamlakatimizda oila institutini mustahkamlash, oilaviy qadriyatlarini saqlash va rivojlantirishga munosib hissa qo‘shib kelayotgan oilalar “Ibratli oila” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi. 15-may — Xalqaro oila kuni munosabati bilan poytaxtimizda mukofot egalariini taqdirlash marosimi va madaniy tadbir bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda Bosh vazir o‘rinbosari — Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi raisi Zulayho Mahkamova va boshqalar ta’kidlaganidek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ichkil islohotlar jarayonida ma’naviy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, oilalar farovonligi va barqarorligini ta’minlashga qaratilayotgan doimiy e’tibor inson qadriini ulug‘lashda muhim omil bo‘lmogda.

Yurtimizda bu yo‘nalishdagi ichkil islohotlar va oilalarga g‘amxo‘rlik siyosati natijasida 2021-yildan boshlab uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj 2790 ayolga arzon uy-joy uchun 49,7 milliard so‘m miqdorida boshlang‘ich badal to‘lab berildi. Yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2044 ta ko‘p qavatli uy qurilib, 100 mingdan ortiq kvartira foydalanishga topshirildi. “Yangi O‘zbekiston” massivlarida 126 ta uy oilalarga foydalanishga topshirildi.

Yoshlarning sifatloli ta’lim olish sharoitini yaxshilash maqsadida ko‘plab maktab va maktabgacha ta’lim tashkilotlari ta’mirlandi, zamonaviy maktablar barpo etilyapti. “Tashabbusli budget” tizimi orqali 4700 ta mahallada qurilish va obodonlashtirish ishlari



IBRATLI OILALAR SAFI KENGAYMOQDA

bajarildi. Bu maqsad uchun 5,5 trillion so‘m yo‘naltirildi.

Bugun respublikamizdagi birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalarida ayollar maslahatxonalarini, tuman (shahar) ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikalarida perinatal skrining xonalari, onkologik kasalliklarni erta aniqlash maqsadida maxsus tibbiy ko‘rik xonalari faoliyat yuritmoqda. 209 ta tuman (shahar) ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikasida bolalarga birlamchi tibbiy yordam ko‘rsatish maqsadida bolalar bo‘limlari ochildi. Tumanlararo perinatal markazlarida chaqaloqlar reanimatsiya shifo o‘rinlari tashkil etildi. Jarohlik operatsiyasini o‘tkazish uchun tibbiy yordamga muhtoj, ehtiyojmand xotin-qizlarga 86,1 milliard so‘m ajratildi.

Bu kabi chora-tadbirlar oilalarda sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, aholining sog‘lom va uzoq umr kechirishini ta’minlash, yosh avlodni yetuk va barkamol etib voyaga yetkazish, oilalar farovonligini yaxshilashda samara berayotir.

O‘z navbatida, davlatimiz tomonidan yaratilayotgan bunday zamonaviy imkoniyat va sharoitlarga javoban yurtimizdagi islohotlarga faol hissa qo‘shishga intilayotgan, yoshlarni milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, xotin-qizlar ma’naviyatini yuksaltirish, onalik va bolalikni muhofaza qilishga munosib ulush qo‘shayotgan, sog‘lom turmush tarzini faol targ‘ib etib kelayotgan, hududlar obodligiga e’tibor qaratib, yashil makonlar yaratayotgan tashabbuskor oilalar safi ham kengaymoqda. Shuningdek, oilaviy tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yib, iqtisodiyotni rivojlantirishga hissa qo‘shayotgan, “ustoz-shogird” an’anasini targ‘ib qiluvchi, mahallalar va oilalarda ma’naviy-axloqiy muhitni sog‘lomlashtirish jarayonida tashabbus ko‘rsatib kelayotgan yurtdoshlarimiz ko‘paymoqda.

Shunday fidoyi va faol oilalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 2-sentabrdagi qaroriga muvofiq, “Ibratli oila” ko‘krak nishoni ta’sis etilgan.

Tadbirda mukofotlanganlarga ko‘krak nishoni va esdalik sovg‘alar topshirildi. Taniqli san’atkorlar va yosh ijrochilar ishtirokidagi konsert dasturi tadbir qatnashchilariga zavq-shavq ulashdi.

Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Hududlar hayotidan

143 LOYIHA VA 10 MING TAQDIR

Yurtimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida erkin iqtisodiy sanoat zonalarining o‘rni kundan kunga ortib bormogda. Bu yerda yaratilgan o‘ziga xos qulaylik va imkoniyatlar ishbilarmonlarga yangi loyihalar ustida ishlash, izlanish imkoniyatini bermogda. Jumladan, “Qo‘qon” erkin iqtisodiy sanoat zonasida shu kunga qadar 143 ta istiqbolli loyiha amalga oshirilib, 2000 ga yaqin yangi ish o‘rni ochildi.

Xususan, 5,2 million dollar investitsiya mablag‘i o‘zlashtirilishi hisobiga “Procure” MCHJda bolalar tagligi ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan korxonada 70 dan ortiq mahalliy yosh ish bilan ta’minlandi. Korxonada yiliga 200 million dona taglik tayyorlanadi. Mahsulotlar nafaqat ichki, balki tashqi bozorda ham mashhur. Shu kunga qadar Qirg‘iziston, Tojikiston va Rossiyaga 4 million dollarlik mahsulot eksport qilindi.

oldik. Mehnatimizga yarasha baraka topyapmiz. Oylik maoshimizni o‘z vaqtida olyapmiz, bepul tushlik, ishga kelib-ketish uchun transport ajratilgan.

“Ipchi ziyo baraka” mas’uliyati cheklangan jamiyatida mahalliy xomashyodan sun’iy tola ishlab chiqarish loyihasi yo‘lga qo‘yildi. U boshqa sanoat tarmoqlari uchun o‘ziga xos qulaylik berayotir. Chunki tikuvchilik va to‘qimachilik korxonalari uchun zarur mahsulot shu paygta qadar Xitoy va Turkiyadan keltirilgan. Ishlab



“Alp Motors N1” MCHJ qo‘shma korxonasida ishlab chiqarilayotgan benzinni va elektr motorollerlar, skuter hamda elektr skuterlar, mototsikl va elektromobillarga talab yuqori. Shu paytga qadar bu turdagi mahsulotlarning aksariyati xorijdan keltirilgan. Erkin iqtisodiy sanoat zonasidagi loyiha mahalliy sharoitda yuqori sifatloli mahsulot ishlab chiqarish imkonini berdi. Yangi tarmogda 3 million dollarlik investitsiya o‘zlashtirilishi hisobiga 150 ta doimiy ish o‘rni ochildi.

— Ishsizligim sababli “Ayollar haftasi”ga kiritilgandim. Yangi korxona tashkil etilganini eshitib, mahalla faollarining tavsiyasi bilan bu yerga ishga keldim, — deydi Ucho‘prik tumanidagi “Yangiyer” mahalla fuqarolar yig‘inida yashayotgan Marhabo Qahhorova. — Mutaxassislar ko‘magida zamonaviy ishlab chiqarish uskunalarini ishlatishni o‘rganib

chiqarishga joriy qilingan loyiha bu boradagi ortiqcha xarajat va ovoragarchiliklarga barham berdi. Korxonaning kunlik ishlab chiqarish quvvati 3 tonnani tashkil qiladi.

— Bu yerda nafaqat xomashyo, balki tayyor mahsulot ishlab chiqarish borasida yangi loyihalarni amalga oshiryapmiz, — deydi korxona rahbari Qahramon Jo‘rayev. — Shu maqsadda bankdan 220 ming dollar miqdorida kredit oldik. Bu paypog‘to‘qishga ixtisoslashgan yangi tarmoqlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish imkonini berdi. Buning hisobiga qo‘shimcha 60 ta ish o‘rni ochildi.

“Velomax” mas’uliyati cheklangan jamiyatida 17 turdagi velosiped ishlab chiqarilayapti. Bu turdagi mahsulotlarning aksariyati xorijdan keltirilgan. Yangi tarmog mahalliy sharoitda mahsulot ishlab chiqarish bilan birga, 40 dan ziyod yoshning bandligini ta’minladi.



“Azamat Savdo Ziyos” MCHJ tomonidan qurib bitkazilgan korxonada burama mix ishlab chiqariladi. Ayni paytda unda yaqin hududdagi mahalla yoshlaridan 70 nafari doimiy ish bilan ta’minlangan. Yiliga 3 ming tonna mahsulot ishlab chiqarish quvvatiga ega korxona xorijga qariyb 1,5 million dollarlik mahsulot eksport qilmoqda. Shuningdek, mamlakat ichki bozoriga bir yilda 24 milliard so‘mlik mahsulot yetkazib beraydi.

— Joriy yilning dastlabki choragida foydalanishga topshirilgan sanoat korxonalari tomonidan umumiy qiymati 918,4 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Xorijga 31,4 million dollarlik mahsulot eksport qilindi, — deydi “Qo‘qon” erkin iqtisodiy sanoat zonasini direktori Farrux Rahmonov. — Mazkur korxonalarda 10 ming 605 ishchi-xizmatchi faoliyat yuritmoqda. Ayni kunda umumiy qiymati 427,4 million dollarlik 34 ta yirik loyihada tasdiqlangan tarmoq jadvallariga asosan qurilish-montaj ishlari bajarilmogda. Mazkur loyihalar ishga tushirilishi hisobiga qo‘shimcha 7000 ga yaqin yangi ish o‘rni ochildi.

“Qo‘qon” erkin iqtisodiy sanoat zonasida ishlab chiqarishga joriy etilayotgan hayotbaxsh loyihalar haqida ko‘plab misollar keltirish mumkin. Bu aholi bandligini ta’minlash, xalq xo‘jaligi tarmoqlari uchun zarur mahsulot yetkazib berishga xizmat qilmoqda. Shu kunga qadar xorijdan import qilingan 50 turdan ortiq mahsulot endi mahalliy sharoitda ishlab chiqarilayapti. Yana bir muhim jihati — mahsulotlarning aksariyat qismi eksportga yo‘naltirilayotganida.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Boboravshan G'OZIDDINOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Yangi davrga xos dadil qadamlar

Taraqqiyot bir joyda to‘xtab turmaydi. Har qaysi soha har kuni isloh qilinmas, mutaxassislar zamondan bir qadam oldinda bo‘lishga intilmas ekan, erishilgan natijani ushlab turish oson bo‘lmaydi. Bugungi global dunyo mamlakatlar, jamiyatlar oldiga yuksalishning og‘ir shartlarini mana shunday talabchanlik bilan qo‘ymoqda. Shu ma’noda, Prezidentimiz raisligida tibbiyotning birlamchi bo‘g‘ini va ixtisoslashgan muassasalarda xizmatlar sifatini yanada oshirish, dori vositalari iste’molini tartibga solish hamda tibbiy ta’limni takomillashtirish bo‘yicha ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishi ana shu talabga munosiblik yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi. Ushbu yig‘ilishda belgilab olingan vazifalar, berilgan topshiriqlar soha mas’ullarini davr bilan hamqadam bo‘lishga undagani ham rost.

So‘nggi 7 yilda tibbiyotga joriy tayotgan mablag‘ 6 karra oshgan. Xususan, joriy yilda 42 trillion so‘mga yetgan. Bunday katta miqdordagi mablag‘ faqat yangi mashina olishiga sarflanayotgani yo‘q. Masalan, mahalladagi birlamchi bo‘g‘in bilan ixtisoslashgan xizmatlarni bog‘laydigan kompleks tizim yaratildi. Buning uchun shunga mos binolar qurildi, ta’mirlandi, tibbiy texnika olib kelindi. Natijada avval faqat poytaxtda bajarilgan 400 dan ortiq yuqori texnologik amaliyot viloyat va tumanlarda ham qo‘yilmoqda. Deylik, bir paytlar buyrak ko‘chirish uchun Toshkentga kelish va uzoq navbat kutish kabi sun‘iy to‘siqlar bor edi. Bugun bu amaliyot viloyatlarda ham bajarilmoqda. Bir vaqtlar bemorlar poytaxtga kelgan bo‘lsa, bugun malakali mutaxassislar hududlarga borib xizmat ko‘rsatayapti. Bu aholiga tibbiy xizmatni yaqinlashtirish barobarida joylardagi mutaxassislar bilan markazdagi vrachlar o‘rtasida o‘ziga xos ustoz-shogird an‘anasiga ham zamin yaratdi.

Har bir soha kadrlar, aniqrog‘i, ishining ustasi bo‘lgan mutaxassislar sabab yuksaladi. Bu isbot talab etmaydigan haqiqat. Mamlakatimizda tibbiyot xodimlari o‘rmini alohida ta’kidlash kerak. Hatto hamshiralik qilish uchun xorijga ishlashga ketgan yurtdoshlarimiz bor. Ular mas’ul vazirlik va idoralar tashabbusi bilan Yevropa davlatlarida bugun hamshira bo‘lib ishlaypti. Endi quyidagi raqamlarga e’tibor qiling. Mamlakatimizda har o‘n ming aholiga 27 nafar shifokor to‘g‘ri keladi. Qiyoslash joiz bo‘lsa, bu AQSH, Buyuk Britaniya, Finlyandiya bilan bir xil ko‘rsatkich. Turkiya va Kanadada bu raqamlar 1,5 baravar kam. Ko‘rinadiki, kadrlarning miqdori borasida muammo yo‘q. Ammo sifat-chi?

Sifat haqida gap ketganida, masalaning bir necha jihatiga e’tibor berish zarur. Masalan, ayrim tibbiyot xodimlari yetarlicha malakaga ega emas. Boshqalari esa zamon bilan hamqadam bo‘lishda qiynalmoqda. Yoki o‘zini qiynashni istamaydi. Buni lo‘nda qilib fidoyilikning oqsashi, deyish mumkin. O‘rni kelganda aytib ketay, bu faqat tibbiyot xodimlariga tegishli o‘riqli masala emas. Jamiyatimizda fidoyi insonlarga sezilarli ehtiyoj bor. Buning o‘zi alohida mavzu va tahlilni talab qiladi.

Yana bir muhim jihat — aholi orasida tibbiy bilim yetishmasligi, oq xalati kishi nima desa, ishonib ketaverish. Buning hayotiy tajribasini ijtimoiy tarmoqlar orqali ko‘rib-kuzatib turibmiz. Ayrim kimsalar yaratilgan imkoniyatlarni suisite‘m qilib, mutaxassisligi bo‘lmagan yo‘nalishlarda xizmat ko‘rsatib, odamlar sog‘lig‘iga jiddiy zarar yetkazadi.

Qolaversa, sog‘lom turmush tarziga ko‘pchiligimiz amal qilmaymiz. To‘g‘ri ovqatlanish nari tursin, ichayotgan dorilarimiz tarkibi, uning foyda va zararini o‘ylab ham ko‘rmaymiz. Shu orqali tibbiyot xodimining dorixona egasi bilan tuzgan shaxsiy biznesiga beminnat xizmat qilamiz. Bu bevosita jamiyatimizdagi tibbiy madaniyatning og‘riqli nuqtasi.

Darvoqe, tibbiy madaniyatimiz qanchalik shakllanganiga yana bir fakt: yurtimizda yuqumli bo‘lmagan kasalliklar iqtisodiyotimizga har yili 1 milliard dollar zarar keltirishi hisob-kitob qilingan. Tez yordamdagi jami chaqiruvlarning to‘rtidan biri surunkali kasalliklari bor bemorlarga to‘g‘ri kelmoqda. Masalan, Farg‘onadagi 12 ta mahallada o‘tkazilgan o‘rganishda har 10 bemordan 8 nafari oilaviy shifokorni chetlab o‘tib, shifoxonaga yoki xususiy klinikaga borayotganini aytgan. Xorazmda esa bemorlar oilaviy shifokorni emas, tez yordamni afzal ko‘ryapti. Sodda qilib aytganda, tez yordam xuddi poliklinikadek bo‘lib qolgan.

Maqolamiz avvalida tez yordamning xalqchil bo‘lishi ta’minlanganini aytgan edik. Yuqoridagi ko‘rsatkichlar jamiyatimizdagi tibbiy madaniyat sabab bu tizim ortiqcha bosim bilan ishlaydigan joyga aylanib qolganini ko‘rsatadi. Dastlabki islohotlardan bunday maqsad ko‘zlanmagan edi. Ya’ni tez yordam birinchi va tekzor yordamni ko‘rsatadi. Ammo surunkali kasallarni davolamaydi. Butun dunyodagi tajribaga ko‘ra, u yo‘nalituvchi dastlabki punktdir. Demak, soha yangi davrga xos yangicha islohotlarni talab qilmoqda.

Davlatimiz rahbari o‘tkazgan yig‘ilish mana shunday masalalarga yechim berishi bilan ahamiyatli bo‘ldi.

Qanday o‘zgarishlar kutilayapti?

Yig‘ilishda soha istiqbolini belgilashdagi muhim omil tilga olindi. Ya’ni unda ko‘rib chiqilgan masalalar, demak, bizni kutayotgan yangi islohotlar bo‘yicha salkam ikki yil tayyorgarlik ko‘rilgan. Jarayonga xorijning



ilg‘or tibbiyot markazlaridan ekspertlar jalb qilingan. Bu aytilyotgan har fikr, belgilab berilyotgan topshiriqlar puxta reja asosida qilinayotganidan dalolat. Yuqorida aytganimizday, ikki yil muloqotlar orqali soha odamlari va oddiy xalq vakillarining bugungi holati o‘rganilgan. Kengashli to‘y tarqamas, degan naqlga amal qilingan. Bu bizga soha tubdan o‘zgarishiga ishonch beradi. Yig‘ilib qolgan masalalarning yechimini esa davlatimiz rahbari qisqacha bunday bayon etdi: **“Agar birlamchi bo‘g‘in, raqamlashtirish va sug‘urtani joyiga qo‘ysak, tibbiyot xodimlarini bilim va amaliy ko‘nikmasini yaxshilasak, muhimi, aholining tibbiy madaniyatini oshirsak, shuning o‘zi orqali ko‘zlagan maqsadlarimizga erishamiz”**.

Shu bois, endi birlamchi bo‘g‘inda tibbiy xizmat sifatini oshirish bo‘yicha yangi tizim bo‘ladi. Davlatimiz rahbari buni Ishitxon tumanidagi O‘zbekiston poliklinikasi misolida tushuntirib berdi. Ushbu tibbiyot maskaniga 7 ta mahalla birlashtirilgan. Lekin 6 nafar oilaviy shifokor 9 ta shatni band qilib, yuklamani eplay olmaypti. Bu poliklinikada yana 6 ta vrach shatni bo‘sh.

Kafolatlangan paketga zarurati puxta o‘ylanmasdan 90 turdagi dori kiritilgan bo‘is, poliklinikaga buning yarmi ham kelmayapti.



“Sog‘lom turmush tarziga ko‘pchiligimiz amal qilmaymiz. To‘g‘ri ovqatlanish nari tursin, ichayotgan dorilarimiz tarkibi, uning foyda va zararini o‘ylab ham ko‘rmaymiz. Shu orqali tibbiyot xodimining dorixona egasi bilan tuzgan shaxsiy biznesiga beminnat xizmat qilamiz. Bu bevosita jamiyatimizdagi tibbiy madaniyatning og‘riqli nuqtasi.

Poliklinikadagi laboratoriya tahlilini birorta shifoxona tan olmaydi.

Eng ko‘p murojaat bolalar kasalliklariga to‘g‘ri kelmoqda. Lekin yuqorida aytilganidey, oilaviy shifokorlarda ko‘nikma yetishmasligi oqibatida ular pediatr vazifasini to‘liq bajara olmayapti. Tug‘uruq yoshidagi 9 ming ayol uchun bor-yo‘g‘i 1,5 stavka ginekolog shlati berilgan.

Aholining 35 foizi yurak-qon tomir, qandli diabet, oshqozon-ichak kabi surunkali kasalliklarga chalangan. Bunday kasalliklarni erta aniqlash, profilaktika qilish va asoratlarni kamaytirish bo‘yicha tibbiyot brigadalarining ishi ko‘rinmayapti.

Shu o‘rinda bir voqea esimga tushdi. Bolaligimda qishlog‘imiz hamshirasi haftaning har juma yoki dushanbasida uyimizga kelardi. Qo‘lida daftar, egnidagi oq xalat bilan kelgan hamshira xola diqqatini bir joyga jamlab yozishni boshlardi: “Qaynatilgan suv — bor...”. “Ha, bor-bor”, deydi onam tasdiq ma’nosida bosh chayqab.

“Hovli toza, xlor... bor, — deydi hamshira xola gapida davom etdi. — Idishlar, oshxona toza”.

U aytganlarini daftarga ko‘chirib, onamga imzolatladi. Keyin uyda kasallar bor-yo‘g‘ini so‘raydi. Bunday vaqtda qaysi o‘zbek kasalman deb “sog‘” boshiga g‘avg‘o sotib oladi! Albatta, isitmasi oshkor qilmaguncha mum tishlanadi. O‘tib ketadi-da, qabilida ish tutiladi, afsuski. Hamshira xola ham bunga chippa-chin ishonadi... yo‘q, o‘zini ishonganday tutadi. Biz o‘z salomatligimizga shu yo‘sin yondashuvdan hamon to‘liq kechib keta olganimiz yo‘q. Bu achchiq haqiqat. Shunday vaziyatlar bo‘ladiki, jamiyatni o‘zgartish uchun qonunlar ishlab chiqiladi va hayotga keng tatbiq etiladi. Tibbiy madaniyatimizni oshirish, soha xodimlarini zamonga mos kadrlarga aylantirishda ham xuddi shunday yo‘l tutilmoqda.

Xususan, endi tibbiyot brigadasi hamda unga birlashtirilgan aholi o‘rtasida huquq va majburiyatlarni belgilovchi ikki tomonlama shartnoma tuziladi. Aholi oilaviy shifokorni erkin tanlaydi, bu jarayonlarga xususiy oilaviy shifokorlar ham jalb etiladi. Bu nima degani?

Xizmat ko‘rsatishda qonuniy hujjat bor. Ya’ni har ikki tomonning huquq va majburiyati aniq bo‘ladi. Chunki qo‘lingizda shartnoma bor. Bu nizoli holatlarda yagona va ishonchli yechimga asos bo‘ladi. Shu jarayonda tibbiyot xodimining mehnat faoliyati aholi tomonidan xolis baholalanadi. Bu baho ularni qancha ko‘p odam tanlayotganida ko‘rinadi. Ya’ni hech kim “Sening oilaviy shifokoring falonchi”, demaydi. O‘zingiz ko‘rib-kuzatib, eng yaxshi shifokorni tanlaysiz. Bu tabiiy raqobat degani. Raqobat bor joyda esa o‘shish, o‘zgarish bo‘ladi. Mana shu amaliyotning o‘ziyoq tez yordamga borib yotib oladigan surunkali kasallar safini qisqartirishga xizmat qiladi.

Gap surunkali kasalliklar haqida ketganida yana bir yangicha yondashuvni eslab o‘tish kerak. Endi tumandagi mahalla va oilaviy



shifokor punktlari, oilaviy poliklinikalar faoliyati maqbullashtirilib, 12 mingdan ko‘p odamga xizmat qiladigan 7 ta yirik poliklinika, qolgan 27 tasi kichik poliklinika sifatida qaytdan tashkil qilinadi.

Tumandagi markaziy poliklinika esa tuman shifoxonasining maslahat-diaagnostika bo‘limiga aylantiriladi. Barcha tor soha mutaxassislari shu yerda ishlaydi. Bu poliklinikalarda oilaviy shifokorning bazaviy oyligi 500 dollar, hamshirani 300 dollar ekvivalentida bo‘ladi. Oilaviy shifokor

xastaliklar bilan kurashish sirini bilishi, balki kuchli psixolog bo‘lishi ham kerak. Odatda surunkali kasalligi bor odamlarda davo yo‘q, degan xavotir bo‘ladi. Bu inson ruhiyati bilan bog‘liq. Bemor bilan mukammal ishlash olish uchun esa mutaxassis o‘z ustida ko‘proq ishlashi, o‘qib-o‘rganishi kerak bo‘ladi. Bu endi uyda qaynoq sov ichyapsizlarni, oshxona va hovli tozami, deb hisobot daftari to‘ldirib ketish degani emas. Balki insonni ham jismonan, ham ruhan o‘rganish, bilish degani. Belgilangan qo‘shimcha rag‘bat

esa ana shunday o‘rganishga, ilm izlashga ruhlantiradi.

Davlatimiz rahbari yig‘ilishda: “Bir so‘z bilan aytganda, oilaviy shifokorlar 1,5 ming dollar, hamshiralari esa 600-800 dollar ekvivalentida oylik oladigan tizim qilamiz. Bu orqali biz shunchaki oylikni emas — inson qadriini oshirgan bo‘lamiz. Lekin natija ham shunga yarasha bo‘lishi kerak”, dedi.

Natija nima degani? Yangi vazifalarga ko‘ra, mahallada bitta bo‘lsa ham infarkt, insult, onalar va bolalar erta o‘limi, surunkali kasallik tufayli orttirilgan nogironlik kuzatilsa, buni favqulodda holat, deb qabul qilinishi kerak. Sodda qilib aytganda, mutasaddilardan tortib, eng quyi tizimdagi xodimgacha bo‘lgan barcha mas’ullar o‘zini qiynashi, uning faoliyati insonlar hayotiga daxl qilishini yurakdan his etishi zarur bo‘ladi. Bu, albatta, bilim va ko‘nikma talab etadi. Shu bois, mazkur jihat ham hisobga olingan. Ya’ni Sog‘liqni saqlash vazirligiga yil oxirigacha tibbiyot oliygohlari bilan 15 ta tumandagi 4700 nafar oilaviy shifokor va hamshirani “Oila salomatligi” dasturi bo‘yicha, rahbarlarni esa menejerlikka o‘qitadi.

Ishlar o‘z vaqtida va samarali tashkil etilishi uchun bu yil 285 milliard so‘m, bunga qo‘shimcha viloyat hokimlari tomonidan ham kamida 10 milliard so‘mdan ajratiladi. Bu mablag‘ 15 ta tumandagi poliklinika va shifoxonalar faoliyatini yangi tizim asosida tashkil qilish uchun sarflanadi.

Shu o‘rinda viloyat hokimlari tomonidan ajratiladigan 10 milliard so‘m nima uchun kerak, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Ochig‘i, hozir tibbiyot maskanlarida kutish, shu jarayonda ayrim xizmatlardan foydalanish borasida og‘riqli nuqtalar bor. Ba’zi joylarda bemorlar ko‘pligi, kutish zallari yo‘qligi yoki yetarli emasligi bois, bemorlar tiqilinch yo‘laklarda tik turishga majbur. Oddiy hojatxona masalasi ham juda og‘riqli.

Yangi islohotlar sabab “Tibbiyotda 90 kunlik o‘zgarishlar” dasturi boshlangani e’lon qilindi. Ushbu dastur doirasida viloyat hokimlari kutish joylarida qulay o‘rindiqlarni ko‘paytirib, navbatni tartibga keltirish, ona-bola xonalarni tashkil qilish, nogironligi borlar erkin harakatlanishi uchun kirish-chiqish joylari, xona va yo‘laklarda inklyuziv muhit yaratish, qo‘l yuvishga issiq suvi bor pokiza hojatxonalar tashkil etish uchun mas’ul etib belgilandi. Ular ajratadigan 10 milliard so‘m ushbu xayrli ishlarga sarf etiladi.

Mutasaddilar bu ishlarni butun respublikada tizimli tashkil qilib, to‘qson kun natijasi bo‘yicha Prezidentga batafsil hisobot beradi. Bu ham maqolamiz avvalida aytilganidey, xalq va hokimiyat o‘rtasidagi muloqotning yana bir ko‘rinishidir. Bundan ko‘zlangan maqsad esa tibbiyot muassasasiga madaniyat, tartib-intizom, fayz olib kirib, odamlarga ijobiy kayfiyat ulashishdir.

Shuningdek, poliklinikada akusher-ginekologlar 2 barobar ko‘payadi. Har 3 ming bola uchun 1 tadan pediatr shlati yangidan qo‘shiladi. Qolaversa, bundan buyon birlamchi bo‘g‘inda yarim yoki 0,25 stavka bo‘lmaydi. Barcha shifokor va hamshiralar faqat to‘liq stavkada ishlaydi. Yana bir muhim jihat, tibbiy yordamning kafolatlangan paketi tasdiqlanadi. Ushbu paket doirasida tibbiy xizmat va dori-darmon to‘liq byudjetdan qoplanadi. Bularning barchasi tibbiyot xodimlarini keraklicha qo‘llab-quvvatlash va aholiga sifati xizmat ko‘rsatishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Yuqorida malakali shifokorlar viloyatlarga borib xizmat ko‘rsatayotgani, bu joylardagi tibbiyot xodimlari faoliyatiga ham ijobiy ta’sir qilayotganini aytidik. Ammo ayrim masalalar hamon saqlanib qolayotgani rost. Masalan, hududlarda yuqori texnologik operativiyalarni o‘tkazish imkoniyati bor. Lekin bemorlar hali ham Toshkentga kelaypti. Deylik, o‘tgan yili yurak ishemik kasalligi bor bemorlarga ko‘rsatilgan koronarografiya va stentlash amaliyotining 80 foizi Toshkentda bajarilgan. Jarrohlik amaliyoti talab qilmaydigan yurak ishemik kasalligi bor bemorlarning ham poytaxtga kelishi kamaymagan. Bu bemorlar va vrachlarning muloqotida kamchiliklar borligini, sohani isloh etishni talab qiladi. Masalan, kasali jiddiy ekanini bilgan bemor darrov: “Toshkentga ketaman, yo‘llanma bering”, deydi. Shifokor ham “och qonim, tinch qolug‘im” qabilida ish tutadi. Yo‘llanmani berib, bemorni poytaxtga kuzatib qutuladi. Vaholanki, eski order tizimidan voz kechilib, imtiyozli toifadagi shaxslarni elektron yo‘llanma orqali davolashga o‘tilganiga ikki yil bo‘ldi. Shunga qaramay, hamon bemorlarni Toshkentga jo‘natish aynan moddiy masala bilan bog‘liq. Ya’ni mablag‘ning asosiy qismi haligacha respublika markazlariga ajratilmoqda. Shu munosabat bilan respublika markazlarida byudjet hisobidan faqat yuqori texnologiyali murakkab amaliyotlar o‘tkazilishi belgilandi. Tuman va viloyatda bemalol qilish mumkin bo‘lgan amaliyotlar uchun respublika markazlariga yo‘llanma berilmaydi. Mutasaddilarga respublika, viloyat, tumanga yo‘llanma beriladigan kasalliklar ro‘yxatini tasdiqlash topshirildi.

Bu odamlarning uzog‘ini yaqin qilish, ularga o‘z hududidan uzoqlashmay sog‘lig‘ini tiklash imkonini yaratish demak. Maqola avvalida hovlimdagi yo‘l, qanday yurishimga qarab necha qadam bilan masofani bosib o‘tishim haqida aniq yozdim. Negaki, u mening uyim va har kuni shu yo‘l bo‘ylab yurganim sabab bular menga yaxshi tanish. Kechki pay hovlining u boshidan bu boshiga borib kelar ekanman, xayolimdand: “Dunyo hovlimizdagi ellik qadamlik yo‘ldan iborat”, degan o‘y o‘tdi. Siz bitta chiziq bo‘ylab, bir xil harakatda mutadil borib kelaversiz. Sirtidan qaraganda, hech narsa o‘zgarmaydi. Ammo har bir qadamda yangicha o‘y, yangi reja va fikrlar og‘ushida bo‘lasiz. Bilasizki, hech o‘zgarmasday ko‘ringan mana shu yo‘l har qadamda o‘zini yangilab borayotgan bo‘ladi. Umumiy uyimiz — yangi O‘zbekistondagi o‘zgarishlar ham xuddi shunday kechmoqda.

Boshlanishi 1-betda

Keyingi yillarda yurtimizda elektrotexnika sanoatini rivojlantirish yoʻlida muhim qadamlar tashlanmoqda. Tarmoqning huquqiy asoslari mustahkamlanmoqda. Jumladan, joriy yil 22-yanvarda davlatimiz rahbarining “Elektrotexnika sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarori qabul qilindi. Unga muvofiq, yuqori qoʻshilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni ragʻbatlantirish, investitsiyalar va xorijiy brendlarni jalb etish, tajriba-konstruktorlik ishlarini rivojlantirish choralari koʻrilmogʻda. Shuningdek, “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasida BMtning elektron hukumat reytingida dunyodagi eng ilgʻor 30 mamlakat qatoriga kirish maqsadi belgilangani bejiz emas.

Kooperatsiya va investitsiya yangi bosqichda

Yurtimizda mahalliy ishlab chiqarishni qoʻllab-quvvatlash, kooperatsiyani rivojlantirish va investitsiya loyihalarini roʻyobga chiqarish borasida izchil va aniq strategiya amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar sanoatda tub oʻzgarishlar qilish, yangi ish oʻrinlari yaratish va iqtisodiy barqarorlikka erishishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunda elektrotexnika sohasida importga qaramlikni kamaytirish va oʻzimizda ishlab chiqarishga katta urgʻu berilayotgani qoʻl kelyapti. Buni birgina kabel misolida koʻrish mumkin. Joriy yildan barcha xorijiy va mahalliy investitsiyalar ishtirokidagi loyihalarda kabel-oʻtkazgich mahsulotlarining kamida 70 foizini mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilish tizimi yaratildi.

Hozir “Masdar”, “ACWA Power” va “China Gezhouba Group” kabi yirik xorijiy kompaniyalar ishtirokidagi loyihalar

1,1 trillion soʻmlik kabel mahalliy ishlab chiqaruvchilarimiz tomonidan yetkazib berilishi rejalashtirilgan. Bu nafaqat mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish, balki yangi ish oʻrinlarini yaratish va tashqi iqtisodiy taʼsirlarni kamaytirishda muhim qadam boʻlmoqda.

2025-yilda 6538 dona nasos va 906 dona elektr dvigatel mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan yetkazib beriladi. Bu talab yirik tarmoqlar — togʻ-kon sanoati, energetika, kimyo va suv xoʻjaligi sohalaridagi loyihalarga nisbatan belgilab berilgan.

Shu asosda joriy yilda 1,5 trillion soʻmlik elektrotexnika mahsulotlari tarmoqlararo kooperatsiya orqali bozorga chiqarilishi rejalashtirilgan. Bu mahalliy korxonalar salohiyatini kengaytirish va tarmoqlararo hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mahalliy lashtirish dasturi doirasida joriy yilda 3,3 trillion soʻmlik 12 turdagi mahsulot ishlab chiqarilishi koʻzda tutilgan. 2024-yilda umumiy qiymati 516 million dollar boʻlgan 85

ta investitsiya loyihasi amalga oshirildi. Ularda 1,7 trillion soʻmlik mahalliy mahsulotlar ishlab chiqarildi. Bu loyihalar nafaqat mahalliy ehtiyojlarni qoplash, balki eksport salohiyatini kengaytirishga ham yoʻl ochyapti.

Yangi bozorlar sari

Jahon iqtisodiyotidagi katta oʻzgarishlar va global raqobat ortgan sayin mamlakatlar yangi bozorlarga chiqishda kreativ yondashuvlarni ishlab chiqishga majbur boʻlmoqda. Yurtimizda ham bu jarayon oʻz samarasini berayotgani va elektrotexnika sanoatiga eʼtibor katta natijalarga olib kelganini koʻrish mumkin.

Soʻnggi yetti yil davomida elektrotexnika mahsulotlarining



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM OʻQISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



eksporti 7 barobar oshdi, geografiyasi esa 63 ta mamlakatgacha kengaydi. 2024-yilda asosiy eksport bozorlari boʻlgan Rossiya, Qozogʻiston va Tojikistonga eksport hajmi 2023-yildagidan 30 million dollar kamaygan boʻlsa-da, bu yoʻqotishlar yangi, yuqori isteʼmolga ega bozorlarda qoplandi. Jumladan, Polsha, Italiya, Isroil, Hindiston va Ozarbayjon kabi davlatlarda mahsulotlar eksporti 60 million dollardan oshdi.

Shuningdek, isteʼmol darajasi yuqori boʻlgan Qatar, Marokash va Kanadaga ham eksport kengaydi. Bu bozorlarning oʻziga xos xususiyati hamda yuqori talab savdoning oʻsib borishiga zamin yaratmoqda.

Eksport logistikasidagi yangiliklar ham oʻziga xos. Moslashuvchan eksport logistikasi ishlab chiqilib, ilgari kirish imkoni boʻlmagan Hindiston kabi yirik bozorga BAAning Dubay

shahrida savdo omborxonalari tashkil etgan holda 2,5 million dollarlik eksport amalga oshirildi.

Tarmoq salohiyatini yuksaltirishda import xomashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qoʻshilgan qiymat yaratish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, import qilingan aliyuminiydan tayyorlangan mahsulotlar AQSH, Kanada va Malayziya kabi rivojlangan bozorlarga eksport qilinmoqda. Ushbu mahsulotlar umumiy eksport hajmida 50 million dollarlik ulushni tashkil etmoqda.

Byurokratik toʻsiqlardan xoli savdo tizimi Yangi bozorlarga chiqish, oʻzaro savdo hajmi oshishi nafaqat iqtisodiyot rivoji, balki sanoatning global raqobatdagi mavqei mustahkamlamoqda. Bu natijalar, albatta, tarmoqdagi yuqori texnologiyalar, yangiliklar va innovatsiyalar qoʻllanishi ortidan kelyapti. Eng muhimi, mahsulotlarimiz global bozorlarda tan olinib, raqobatbardoshlikni oshiradi, bu esa nafaqat ish oʻrinlari yaratish, balki iqtisodiy oʻsish va aholi farovonligi oshishini taʼminlaydi.

Quvvat, salohiyat, imkoniyat — bular temirida emas, balki inson tafakkurida. Shu maʼnoda, yurtimiz ishlabchilarning har bir imkoniyatni samarali ishlatishga, yangi hududlarni ochish orqali milliy iqtisodiyot rivojiga yoʻl ochishga harakat qilayotgani diqqatga sazovor. Natijada yangi savdo yoʻllari va bozorlar sari odimlayotgan Oʻzbekiston global raqobat maydonida oʻz oʻrniga ega boʻlib bormoqda.

Jahon bozori va savdo muhitidagi ulkan oʻzgarishlar, anʼanaviy savdo usullari orqali koʻpincha koʻplab byurokratik toʻsiqlarga duch kelish tabiiy holat. Shu bois, savdo

sohasida raqobatlashish va tezkor natijalarga erishish uchun yangi usullar, jumladan, onlayn marketpleyslar orqali eksport qilish keng tarqalmoqda. Buning natijasida toʻsiqlar qisqarayotgani va yangi imkoniyatlar paydo boʻlayotgani koʻzga tashlanmoqda.

Hozirgi kunda onlayn marketpleyslar orqali savdo qilish natijasida milliy mahsulotlarimiz jahon bozorlariga yanada oson va samarali yetkazilmoqda. 2024-yilda elektrotexnika sohasida marketpleyslar orqali 10 ta korxona tomonidan 15 million dollarlik eksport amalga oshirildi. Bu raqamlar 2025-yilda toʻrt barobar koʻpayishi, yaʼni 30 ta korxona 65 million dollarlik eksportga yetishi kutilmoqda. Marketpleyslar vositasidagi eksport hisssasi yildan yilga oʻsib bormoqda, bu esa mamlakatimiz uchun muhim iqtisodiy bosqichni belgilamoqda.

Masalan, 2025-yilda tarmoqning 30 ta korxonasi Rossiyaning “Vayldberri”, “Ozon”, “Xolodilnik.ru”, “M-Video”, “Eldorado” va Qozogʻistonning “Kaspi”, “Texnograd”, “Xalik market”, “Teyez” kabi savdo platformalari orqali qoʻshimcha 50 million dollarlik mahsulot eksport qilishni rejalashtirgan. Bu platformalar nafaqat mahsulotlarni oson yetkazib berish, balki savdo jarayonini qator byurokratik toʻsiqlardan xalos qilishga ham yordam bermoqda.

Marketpleyslar bilan savdo tizimini kuchaytirish hamda iqtisodiy integratsiya va savdoning raqobatbardoshligini oshirish orqali mamlakatimiz sanoatiga yangi yoʻnalishlar ochilmoqda. Shu tariqa mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun ichki va global bozorlarda raqobatlashish uchun yangi imkoniyatlar yaratiladi.

Eksport logistikasidagi oʻzgarishlar hamda onlayn platformalar orqali savdo qilishning samaradorligi iqtisodiy rivojlanishga katta hissa qoʻshmoqda. Bu esa yangi savdo imkoniyatlari paydo boʻlayotganini anglatadi.

Marketpleyslar orqali savdo qilish savdo, iqtisodiy faoliyat va eksport hajmi oʻsishiga sabab boʻlgan yangi qadamlar. Bu tizim byurokratik toʻsiqlarni yengib, raqobatga qodir, rivojlangan iqtisodiy muhit yaratishga yordam beradi. Shuningdek, mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, elektrotexnika sohasi rivoji mamlakatimiz iqtisodiyoti oʻsishi, xalq farovonligi va raqamli jamiyat qurish sari ishonchli qadamlardan biriga aylanmoqda. Yurtimizda usbu yoʻnalishga qaratilayotgan eʼtibor ertangi texnologik taraqqiyot poydevorini mustahkamlamoqda.

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri

Yurt manzaralari

Navoiy viloyatining turizm maskanlarini togʻu toshlar hamda choʻllar orasidagi olis yoʻllar bogʻlab turishi ham sayyohlarga qiziqarli taassurotlar taqdim etadi. Misol uchun, Nurota tumanidagi “Chashma” majmuasi, Sentob turizm qishlogʻi, Xatirchi tumanidagi Oltinsoy, Langar, Angidon qishloqlari, Qiziltepa tumanidagi Toʻdakoʻl maskani va Navbahor tumanidagi mashhur Sarmishsoy darasi kabi sayyohlik obyektlari bir-biridan olisda joylashgan. Qolaversa, hudud Samarqand va Buxoro viloyatlari oʻrtasida joylashgani sababli qariyb 340 kilometr masofada turli yoʻnalishlarni qamrab olgan Navoiy turizm halqasi tashkil qilinayotgani sayyohlarni tobora koʻproq chorlamogʻda.

Yangi Qazgʻon — yangi sayyohlik maskani

Navoiy viloyatining turizm maskanlari qatoriga bugun Konimex tumanidagi Yangi Qazgʻon ovuli ham qoʻshilmoqda. Gap shundaki, Qizilqum kengliklarida joylashgan mazkur ovul turizm qishlogʻiga aylantirilmoqda. Asosan, qozoqlar istiqomat qiluvchi bu hududning toza havosi, choʻl tuyalari va mahalliy aholining oʻziga xos qadriyatlari sayyohlarga manzur boʻlmoqda. Tuman markazidan olis ushbu ovulda ayni vaqtda 7 ta mehmon uyi barpo etilgan. Sayyohlar uchun milliy taomlar tayyorlash, tuya sutini sogʻish, jigar, oshqozon kasalliklari uchun tuya sutini ichish, tandirda non yopish, gilamdoʻzlik mahsulotlari tayyorlash va sotish kabi xizmatlar yoʻlga qoʻyilgan.

Yaqinda Konimex tumanining Yangi Qazgʻon va Doʻngalak ovullarida boʻlib oʻtgan etnofestivalda qatnashgan 200 dan ortiq xorijlik mehmon ana shu xizmatlardan foydalanib, Qizilqum kengliklari manzarasidan bahramand boʻldi.

— Oʻtovdan mehmon uyi qurganmiz, — deydi Galya Bekhenbekova. — Sayyohlarni milliy qadriyatlarimizdan tashqari tuya



NAVOIYNING TURIZM HALQASI
SAYYOHLARNI NIMASI BILAN OʻZIGA JALB QILMOQDA?



Qadimda ajdodlarimiz suv boʻylari va ov qilish oson boʻlgan daralarni oʻziga makon qilgan. Sarmishsoyning tabiati bugun ham goʻzal. Yoqimli shabada esib turadi, bahorda koʻm-koʻk, kuzda sargʻish maysalar oʻziga xos manzara kasb etadi. Bu yerda oʻsimlikning 600 dan ortiq turi uchraydi. Ularning ayrimlari noyob boʻlib, “Qizil kitob”ga kiritilgan. Darada hayot juda sekin oʻtayotganga oʻxshaydi. Tinch va sokin. Basavlat qoyalari necha-necha avlodlarni koʻrgan.

Petrogliflar soddaroq boʻlishi mumkin. Bu suratlar ochiq osmon ostida, asrlar sinoviga dosh berib yashab kelmoqda. Ularni saqlab qolish nihoyatda muhim.

Manguga muhrlangan suratlarda gajakdor shoxli arxarlar togʻ echkilari, yovvoyi toʻngʻizlaru kamonini ushlab ov qilayotgan odamlar, hatto raqs tushayotgan erkak va ayolning obrazlari kishi hayratini oshiradi. Petrogliflar 22,5 kilometr uzunlikdagi qoyatoshlarga oʻyib ishlangan.

Ayni vaqtda sayohatbop bu manzildan uncha uzoq boʻlmagan hududda Sarmishsoy dam olish maskani faoliyati yoʻlga qoʻyilgan. Dara boʻylab

ekskursiyalar, hayvonot bogʻi bilan tanishuv va oʻnlab boshqa turizm xizmatlari mavjud. Bu esa sirdi Sarmishsoyga sayyohlarni tobora koʻp jalb etmoqda.

Xatirchi moʻjizalari:
Angidon, Oltinsoy, Langar

Xatirchi tumani sogʻlomashtirish, dam olish va faol turizmni birlashtiruvchi maskanlari bilan sayyohlar orasida mashhur. Toza togʻ havosi, ekstremal yoʻlaklar va innovatsion faoliyatdan bahramand boʻlishni istaganlar uchun Angidon, Oltinsoy va Langar qishloqlarida barcha sharoit yaratilgan.

Soʻnggi yillarda tumanda sayyohlik salohiyatini oshirishga qaratilgan koʻplab tashabbus va loyihalar hayotga tatbiq etilmoqda. Natijada sayyohlar uchun jozibali manzillar soni ortib bormoqda. Ular orasida Oltinsoy, Langar va dengiz sathidan 2000 metr balandlikda joylashgan Angidon qishloqlari eng mashhurlaridir.

“Chashma” majmuasi va
Sentob turizm qishlogʻi

Navoiy viloyatining turizm salohiyati rivojida Nurota tumanining ham oʻziga xos oʻrni bor. Ayniqsa, ziyorat turizmidagi “Chashma” ziyoratgohi alohida eʼtirofga molik. Nur Chashmasi tabiatning noyob tuhfasiga boʻlib, uning qachon, qanday paydo boʻlgani nomaʼlum. Maʼlumotlarga koʻra, bu moʻjiza murakkab tabiiy jarayonlar natijasida paydo boʻlgan. Arxeolog olimlar chashma janubidagi qalʼ a tevarigidan topgan qoʻl bilan ishlov berilgan topilmalar yuqori paleolit davrida ham bu manzilda odamlar yashaganini anglatadi.

Mutaxassislar fikricha, chashma suvi togʻ ichida, toshlar orasidan sizib oʻtib, turli kimyoviy birikmalar, togʻ jinslaridagi har xil elementlarni eritib oʻzi bilan birga olib keladi. Yuqori minerallangan suv yer yuziga chashma boʻlib otilib chiqadi. Dengiz sathidan 524 metr balandlikda joylashgan chashma suvi tarkibida 20 xil mikroelement borligi aniqlangan. Harorati esa qishin-yozin bir xil boʻlib turadi. Chashmadagi baliqlar tabiatning betakror moʻjizasi. Mahalliy xalq, sayohatchilar ularga ozor yetkazmaydi.

Ziyoratgohda joylashgan “Chilustun” jome masjidining birinchi marta qurilishi X asrga borib taqaladi. Uning oʻziga xos jihatlari shundaki, masjidida qadimda ishlatilgan quyosh soatining oʻrni bor va qadimgi aks sado beruvchi ovoz kuchaytirgichlar keyingi taʼmirlash jarayonida saqlab qolingan.

Nurota tumanida sayyohlarni oʻziga jalb etuvchi yana bir soʻlim maskan Sentob turizm qishlogʻidir. Bu moʻjiz qishlogʻ Nurota togʻlarining shimoliy yon bagʻrida joylashgan boʻlib, qariyb 3 ming kishi istiqomat qiladi. Bu maskan qadim tarixi, madaniy merosi, oʻtmishi, milliy qadriyatlari va urf-odatlari bugungacha saqlanib qolgani bilan ajralib turadi. Qoyatoshlarga ishlangan, V-VI asrlarga oid petrogliflar, togʻ tepasidagi koʻhna qoʻrgʻon qoldiqlari, XI-XVIII asrlarga oid toshbitiklar hamda qishloqning eng yuqori nuqtasidagi Fozilmon koʻli diqqatga sazovor. Ayni vaqtda bu yerdan mahalliy va xorijiy sayyohlarning qadami uzilmaydi.

Joriy yil birinchi choragida viloyatga 52,6 ming xorijiy va 269,6 ming mahalliy sayyoh keldi. Turizm eksporti qiymati 15,8 million dollarga yetkazildi. Germaniya, Fransiya va Xitoydan eng koʻp sayyoh kelgani kuzatildi.

Ayni vaqtda Nurotadagi “Chashma” ziyoratgohini Samarqand viloyatidagi “Imom Buxoriy” yodgorlik majmuasi va Buxoro viloyatidagi “Yeti pir” ziyoratgohlari bilan bogʻlovchi dastur ishlab chiqilgan. Ushbu yoʻnalishga 18 ta madaniy meros obyekti, 8 ta turizm qishlogʻi va mahallasi, 130 ta turizm obyekti hamda Nurota tumanidagi hunarmandchilik markazi kiritilgan. Bu esa Navoiy viloyatining turizm salohiyati va jozibadorligi yanada oshishiga xizmat qiladi.

Gʻolib ABDUSALOMOV,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri

Bundan 7-8 yil ilgari mamlakatimizda oliy ta’lim muassasalari sanoqli bo’lgani, bori ham davlatga qarashli ekani, xususiyl OTMlar yo’qligi tufayli talaba bo’lish nihoyatda qiyin, ta’lim yo’nalishidagi bir o’ringa kamida 30 nafargacha nomzod to’g’ri kelar edi. Natijada aksariyat yoshlar boshqa davlatlardagi o’qitish sifati kafolatlanmagan OTMlarga hujjat topshirar, salmoqli mablag’ chet elga chiqib ketardi.

Mulohaza

TALABALAR UCHUN “KURASH MAYDONI”

INTILUVCHANLIK VA IJTIMOIIY FAOLLIK KAFOLATI



Azizbek OMONOV,
dotsent

Bugun yurtimizda 200 dan ortiq davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyat yuritilmoqda. Hozir ularga o’qishga kirish ixtiyoriy va juda oson. Biroq shunga mos ravishda ta’limning sifatiga e’tibor ham ortib bormoqda. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining bu yil 10-martdagi “Oliy ta’lim tashkilotlarida talabalarga grantlarni taqdim etish va qayta taqsimlash tartibi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori ham OTMlarda o’qitish sifatini oshirish va jamiyatda ijtimoiy faol yoshlar qatlamini paydo qilishga qaratilgan. Endi davlat granti va stipendiyalar har o’quv yilida aylanma shaklda, munosib talabani o’zlashtirishiga qarab belgilanadi. Xo’sh, buning tartibi qanday?

Qaror bilan tasdiqlangan nizom ta’lim grantlarini ikkinchi va undan keyingi kurslarda yuqori akademik o’zlashtirish ko’rsatkichiga erishgan va O’zbekiston Respublikasi fuqarosi bo’lgan ijtimoiy faol talabalar o’rtasida oliy ta’lim tashkilotlari tomonidan taqaballashirilgan tarzda qayta taqsimlash hamda qo’shimcha grant taqdim etish tartibini belgilaydi. E’tiboringizni uning mohiyatini yorituvchi, jarayonlarni harakatga keltiruvchi iqtiboslar, mexanizmlarga qaratmoqchimiz.

Ta’lim grantining bazaviy soni — oliy ta’lim tashkilotining tegishli bakalavriat ta’lim yo’nalishiga (magistratura mutaxassisligiga) kirish imtihonlari natijasiga ko’ra, davlat granti asosida 1-kursga talabalikka tavsiya etilgan abituriyentlar soniga teng grant o’rni;

Ta’lim grantiga talabgor — oliy ta’lim tashkilotining ta’lim granti ajratilgan bakalavriat ta’lim yo’nalishi (magistratura mutaxassisligi) bo’yicha ikkinchi va undan keyingi kurslarda tahsil olayotgan, ta’lim grantini qayta taqsimlashda ishtirok etish istagini bildirgan talaba;

To’liq ta’lim granti — bir o’quv yili uchun berilib, o’qitish xarajati davlat byudjetidan to’liq qoplab beriladigan va umumiy tartibdagi stipendiya bilan ta’minlanadigan ta’lim granti;

To’liq bo’lmagan ta’lim granti — bir o’quv yili uchun berilib, to’lov-kontrakt summasining 50 foizi davlat byudjetidan qoplab beriladigan va umumiy tartibdagi stipendiya bilan ta’minlanmaydigan ta’lim granti;

GPA (Grade Point Average) — ta’lim oluvchining dastur bo’yicha o’zlashtirgan ballarining o’rtacha qiymati;

Qo’shimcha davlat granti — oliy ta’lim tashkilotlarining bakalavriat ta’lim yo’nalishlarida muayyan o’quv yili yakuni bo’yicha GPA ko’rsatkichi 4 va undan yuqori bo’lgan, ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan belgilanadigan toifadagi talabalarining navbatdagi o’quv yili uchun o’qitish xarajati davlat byudjetidan to’liq qoplab beriladigan va umumiy tartibdagi stipendiya bilan ta’minlanadigan grant;

Oliy ta’lim tashkiloti granti — moliyaviy mustaqillik berilgan oliy ta’lim tashkilotlari tomonidan ularda bakalavriat ta’lim yo’nalishlari bo’yicha tahsil oluvchi belgilangan toifadagi talabalarining GPA ko’rsatkichi 3,3 dan 4 gacha bo’lganda, ularning navbatdagi o’quv yili uchun belgilangan to’lov-kontrakt summasining 20 foizdan 80 foizgacha bo’lgan qismini ushbu oliy ta’lim tashkilotining byudjetdan tashqari mablag’lari hisobidan qoplanadigan grant.

Talabalarining o’zlashtirish ko’rsatkichi O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining HEMIS — Oliy ta’lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi orqali shakllantiriladi. Bunda talabalarining GPA ko’rsatkichi yuzdan bir ulushda hisoblanadi.



Akademik o’zlashtirish ko’rsatkichini aniqlash bo’yicha komissiya ta’lim grantiga talabolarining o’zlashtirish ko’rsatkichini hisoblab chiqib, mutanosib tarzda 80 ballik mezonda baholaydi hamda tegishli bayoni bilan rasmiylashtiradi. Bunda talabalarining akademik o’zlashtirish ko’rsatkichi talabalarining GPA ko’rsatkichini “16” soniga ko’paytirish orqali aniqlanadi. Nega aynan “16”? Talabani

akademik o’zlashtirish ko’rsatkichini aniqlashda eng yuqori o’zlashtirish mumkin bo’lgan GPA — 5 ball. Qaror nizomiga ko’ra, 80 ball 5 ga bo’linsa, 16 soni kelib chiqadi.

Birinchii bosqichda talabani akademik o’zlashtirish ko’rsatkichi (80 ball) ta’lim oluvchining dastur bo’yicha o’zlashtirgan ballarining o’rtacha qiymati (16 soni)ga ko’paytiriladi.

Ikkinchi bosqichga ko’ra, qaror nizomining 2-ilovasida talabani ijtimoiy faolligi uchun 20 ball ajratilgan. Xo’sh, 20 ball qayerdan paydo bo’ldi degan savol tug’iladi. Nega ijtimoiy faollik uchun 20 ball? Yuqorida keltirilganidek, talabani akademik o’zlashtirish umumiy 100 balldan 80 ballgacha baholanadi. Qolgan 20 ball 100 ballni ta’lim oluvchining dastur bo’yicha eng yuqori ko’rsatkichi — 5 ballga bo’lish orqali vujudga keladi.

Masalan, talabani akademik o’zlashtirish ko’rsatkichi, ya’ni GPA 5 ball bo’lsa, natija — 5x16=80. Agar GPA 4,20 bo’lsa, natijasi — 4,20x16=67,2 kelib chiqadi. Talabani ijtimoiy faollik ko’rsatkichi — eng yuqori ball 20 bo’lsa, buning natijasi — 20:5=4. Yoki talabgor ijtimoiy faollikda o’zlashtirgan ball 18 bo’lsa, 18:5=3,6 bo’ladi.

Ijtimoiy faollik o’zi nima? U qanday baholanadi? Bu savol bugun ko’plab talabalarni qiziqitirmoqda. Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlangan nizomda keltirilganidek, ijtimoiy faollik uchun 100 ball beriladi. Bunda talabani kitobxonlik madaniyati — 20 ball, “5 muhim tashabbus” doirasidagi to’garaklardagi faol ishtiroki — 20 ball, akademik o’zlashtirish — 10 ball, universitet ichki tartib-qoidalar va o’qov-axloq kodeksiga rioya etishi 5 ball tizimida baholanadi. Shuningdek, xalqaro, respublika, viloyat miqyosidagi ko’rik-tanlov, fan olimpiadalar va sport musobaqalarida erishgan natijalari — 10 ball, darslarga to’liq va kechikmay kelishi — 5 ball, “Ma’rifat darslari”da faol ishtiroki — 10 ball, volonterlik va jamoat ishlaridagi faolligi — 5 ball, teatr va muzey, xiyobon, tarixiy qadamlarga borishi — 5 ball, sport bilan shug’ullanishi va sog’lom turmush tarziga amal qilishi — 5 ball hamda ma’naviy-ma’rifiy sohaga oid boshqa yo’nalishlardagi faolligi uchun 5 ball berilishi belgilangan.

Nizomga ko’ra, bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha tahsil oluvchi, belgilangan toifadagi talabalarining GPA ko’rsatkichi 3,3 dan 4 gacha bo’lsa, ularning navbatdagi o’quv yili uchun belgilangan to’lov-kontrakt summasining 20 foizdan 80 foizgacha bo’lgan qismi moliyaviy mustaqillik berilgan OTMlarning byudjetdan tashqari mablag’i hisobidan qoplanadi.

Barcha oliy ta’lim muassasalari talabani ijtimoiy faollik ko’rsatkichini jamoaviy kelishilgan holda amaliyotda qo’llaydi. Bunda talabani manzilli va sa’y-harakatlarini to’g’ri yo’naltirish uchun muassasalar rahbariyatlari tomonidan puxta o’ylangan dastur ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O’QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Tahlil va taqqos

YURTIMIZ OLIY TA’LIM XABIGA AYLANMOQDA

Bugun mamlakatimizda eng katta e’tibor, kuch va mablag’ ta’limga ajratilmoqda. Zero, millat taqdiri, kelajagi aynan ta’lim-tarbiya, yoshlarning salohiyati bilan chambarchas bog’liq. Ta’lim yuksalsagina qolgan sohalar rivojlanadi, yurt tinch bo’ladi, xalq farovon yashaydi.

Yurtimizda juda qisqa muddatda oliy ta’lim tizimida muammolar bartaraf etilib, davr talablariga moslashtirildi. Yoshlarning oliy ta’limdagi qamrovi 9 foizdan 42 foizga yetkazildi. Nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyati uchun ham keng yo’l ochildi.

Davlatimiz rahbarining 2019-yil 8-oktabrdagi “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi farmoni sohada yangi sahifa ochishga zamin yaratdi. Unda intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish kabi vazifalar belgilab berildi.

Konsepsiya asosida OTMlarga qabul kvotasi ko’paytirildi, raqamli texnologiyalar va ta’lim platformalari amaliyotga keng joriy



Sanjar SHOQO’CHQOROV,
texnika fanlari bo’yicha
falsafa doktori, dotsent

Bu esa tizimning investitsiyaviy jozibadorligi oshishi, xorijiy ta’lim va ilm-fan texnologiyalarini keng jalb etishga imkoniyat yaratyapti. Eng muhimi, O’zbekistonda oliy ta’lim sifati tubdan o’zgarmoqda. Bugun Yevropaga borib o’qish shart emas. Shu bilimni o’zimizning oliy o’quv yurtlarimizda olsa ham bo’ladi. Qator nufuzli chel el OTMlarining Toshkent shahridagi filialida yoshlarga zamonaviy bilim berib kelinmoqda.

O’zbekiston bugun tarix chorrahasida, ta’lim rivojida yangi marralarni zabt etishga intilmoqda — deydi UNICEFning mamlakatimizdagi vakolatxonasi sobiq rahbari



etildi. Shuningdek, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoriylashtirish va boshqa qator yo’nalishlarda samarali natijalarga erishildi.

Xalqaro tajribalar asosida oliy ta’lim muassasalarida nazariy bilimdan ko’ra, amaliy ko’nikmalarni shakllantirishga kuchli e’tibor qaratilyapti. Talabalarga kreativ fikrlash, amaliy ko’nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o’quv rejarlar ishlab chiqish va boshqa maqsadlarda oliy ta’lim muassasalariga bosqichma-bosqich akademik mustaqillik berilmoqda.

Ayniqsa, moliyaviy mustaqillik ortidan ko’p yillardan buyon qaddini ko’tarolmay kelayotgan institut va universitetlar o’z nufuzini tiklayapti. E’tiborlisi, har jihatdan mustaqil OTMlar xalqaro reytinglardan munosib o’rin egallab, jahonda yangi O’zbekiston imijini shakllantirishga hissa qo’shmoqda.

Islohotlar jarayonida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilyapti. Bugun yoshlarning asosiy qismi nodavlat OTMlarni tanlamogda. Boisi, ushbu o’quv yurtlarining kadrlar tayyorlash borasidagi o’ziga xos yondashuvi, ta’lim sifati, zamonaviy sharoiti davlat OTMlaridan umuman farq qilmaydi. Qolaversa, Yevropa ta’lim standartlariga to’liq javob beradi.

Umuman, sohadaqamrovli islohotlar tufayli mamlakatimiz oliy ta’lim tizimi Markaziy Osiyoda xalqaro ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi xabga aylanib bormoqda.

Munir Mamedzade. — O’zbekiston hukumati xalqning barqaror rivojlanishi va farovonligi uchun savoli o’qitish muhimligini anglagan holda ta’lim sohasida katta sa’y-harakatlarni amalga oshirdi. Biroq bu islohotlar xalqaro tashkilotlarning mustahkam hamkorligi va ko’magini talab qiladi. Biz bunda ishtirok etayotganimizdan mamnunmiz.

Zamonaviy axborot texnologiyalari hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Oliy ta’lim muassasalarimizda axborot-kommunikatsiya va ta’lim texnologiyalari integratsiyasi ta’minlanmoqda. Eng avvalo, pedagog kadrlar mahorati uzluksiz oshirib borilyapti. Talabalar masofaviy ta’lim dasturi asosida istalgan joyda turib elektron kutubxonadan foydalanadi. Elektron o’quv adabiyotlarini QR-kod yordamida bemaol saqlab olishi va mutolaa qilishi mumkin.

HEMIS axborot tizimi oliy ta’lim jarayonini oson boshqarish, samaradorlik ortishi va shaffoflikni ta’minlashga yordam beryapti. Shu tufayli qog’ozbozlik kamayib, professor-o’qituvchilar asosiy vaqtini yoshlarga bilim berish va izlanish bilan shug’ullanishga sarflamoqda.

2024/2025-o’quv yilidan boshlab oliy ta’lim muassasalarida registrator ofisi faoliyati yo’lga qo’yilishi o’quv jarayoniga raqamli texnologiyalar va o’qitish usullarini yanada keng joriy etish, talabalarga zamonaviy xizmat ko’rsatishga turki bo’ldi. Jumladan, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika

universitetida registrator ofisi tizimi amaliyotga joriy etilishi tufayli

40 dan ziyod me’yoriy hujjat elektron ko’rinishda yuritila boshladi.

Raqamli ta’lim texnologiyalari markazi bilan hamkorlikda universitet o’quv bo’limi, dekanatlar, buxgalteriya, marketing va amaliyot, ilmiy, xalqaro aloqalar bo’limlari o’rtasida yagona elektron hujjat aylanishini ta’minlovchi r-office.edu.uz tizimi ishga tushirildi.

Aksariyat yosh mutaxassislar ishlab chiqarish korxonalarida mehnat qilishdan ko’ra, ilm-fan va tadqiqot ishlari bilan shug’ullanishni afzal ko’rmoqda. Boisi, sohani ilmiy nuqtayi nazardan o’rganigan kadrlar boshqalarga qaraganda ko’proq samaraga erishadi. Shu nuqtayi nazardan tizimda “Universitet 3.0” konsepsiyasi bosqichma-bosqich joriy etilyapti. Innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijasini tijoriylashtirish, xorijdan investitsiya jalb qilish, boshqa pulli xizmatlar ko’lamini kengaytirish ishlari ham ravnaq topmoqda.

Mamlakatimizda barpo etilayotgan “INNO” innovatsion o’quv-ishlab chiqarish texnoparklarida startap-akselerator, biznes-inkubator, ishlab chiqarish maydonlari, kovorking markazlari faoliyati yo’lga qo’yilgan. Bu maskanlarda yosh olimlarimizning startap loyihalar ustida ishlashi, muvaffaqiyatli loyihalarini muloyilashtirishi, umuman, ilmiy va innovatsion faoliyat yuritishi uchun barcha sharoit bor. Masalan, Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi O’zbekiston — Yaponiya yoshlar innovatsiya markazi, Toshkent to’qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi O’quv-amaliy to’qimachilik texnopark hamda Urganch davlat universiteti huzuridagi “Xorazm” innovatsion texnopark ham eng iqtidorli yoshlar uchun ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etishda maktab vazifasini tamomlagan.

O’zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Nanotexnologiyalarni rivojlantirish markazi, Yarimo’tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti, Biofizika va biokimyoy instituti, Intellektual dasturiy tizimlar ilmiy-amaliy markazida amalga oshirilayotgan zamonaviy ilmiy tadqiqotlar ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlaridagi muammolar yechimiga qaratilmoqda.

Prezidentimizning 2024-yil 24-maydagi “Oliy ta’lim tashkilotlariga o’qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to’g’risida”gi farmoniga muvofiq, 2024/2025-o’quv yilida davlat oliy ta’lim muassasalarini bakalavriatga qabul jarayoni ikki bosqichda — “avval test, so’ng tanlov” tamoyiliga muvofiq o’tkazildi.

Endi davlat grantlari OTMlar uchun emas, balki yo’nalishlar uchun ajratiladi. Muayyan yo’nalishga to’pshirgan va yuqori ball to’plagan abituriyentlarigina grant asosida o’qishga qabul qilinadi. Bu qaysidir oliyog’ha 160 ball bilan kontraktga kirib, boshqa OTMda xuddi shu yo’nalishga 100 ball bilan grantga kirishga barham beriladi degani. Shu bilan birga, davlat grantining barcha kvotasini bitta OTM olib qo’yishining oldi olinadi.

Albatta, hamma davlat granti asosida o’qishni xohlaydi. Buning uchun oylab, hatto yillab tayyorgarlik ko’radi. Ba’zi yoshlar yuqori ball to’plab grant asosida o’qishga kirib oladi-da, so’ng bamayilxo’rlikka beriladi. Keyingi holatda esa abituriyentlarning chunna harakat qilisa ham bali yetmay, kontraktga qabul qilinadi. Ana shunday holatlarga ham adolat bilan yondashish maqsadida joriy yildan boshlab davlat granti ijtimoiy-rag’batlantiruvchi va ta’lim granti shaklida ajratiladi. Ya’ni bakalavriat va magistraturaga qabul qilingan talabalarga ta’lim granti bir o’quv yili uchun amal qiladi. Ushbu tartib barchani tishiroqchilik bilan o’qishga undaydi.

Mamlakatimiz oliy ta’lim sohasida ijobiy o’zgarishlar ayni paytda ham davom etmoqda. Demak, o’qiydigan, kasb-hunar egallaydigan, yoshlar o’z iqtidorini jahon uzra namoyish etadigan davr keldi. Bu imkoniyatlardan unumli foydalanish har bir yigit-qizning eng asosiy burchi bo’lmog’i lozim.

Kamolot pillapoyalari

Mamlakatimizda xotin-qizlarning jamiyatdagi o’rnini mustahkamlash, ta’lim, ilm-fan, sog’liqni saqlash va ijtimoiy faoliyatdagi imkoniyatini kengaytirish yo’lidagi islohotlar kundan kunga ortib bormoqda. O’zbekiston respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to’g’risida”gi qonuni gender tenglikni ta’minlash masalasini davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biriga aylantirdi.



Guljahon SHAYDULLAYEVA,
tarix fanlari bo’yicha
falsafa doktori

Ushbu qonun va unga asoslangan chora-tadbirlar natijasida mamlakatimizda xotin-qizlarga e’tibor ortib, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtiroki kuchaydi. Hozir xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 35 foizga, ilm-fan sohasida esa 48 foizga yetganini ta’kidlash zarur. Bu raqamlar yurtimizda ayollar uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar hamda ularning yuksak faolligidan dalolat beradi.

Bunday yuqori e’tibor O’zbekiston milliy universiteti tarix fakulteti uchun ham alohida

ahamiyat kasb etmoqda. Fakultet bugun ilm-fan sohasida tashabbuskor mavqega ega olimlarning ilmiy markaziga aylangan. Xususan, fakultetda 11 fan doktori va 12 fan nomzodidan iborat olimlar guruhi faoliyat yuritmoqda. Ularning aksariyati ilmiy tadqiqot ishlari bilan birga pedagogik faoliyatda ham qator yutuqlarga erishayotir. Shuningdek, fakultetdagi ikkita kafedraga ayollar rahbarlik qilmoqda.

Xotin-qizlar “Olina” uyushmasi mamlakatimizda ilm-fan bilan shug’ullanayotgan

opa-singillarimizni birlashtiruvchi muhim platformalardan biriga aylangan. Uyushma o’z tarkibida Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi 100 ga yaqin oliy ta’lim muassasasi, shuningdek, Fanlar akademiyasining ilmiy tadqiqot institutlarida faoliyat yuritayotgan olimlarni birlashtirgan. Har yili uyushma tomonidan “Olina ayollar — millat kelajagi tarbiyachisi”, “Olina ayollar — O’zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisi” kabi mavzularda forumlar o’tkazib kelinadi. Bu tadbirlar xotin-qizlarning ilmiy va ijtimoiy faolligini oshirish, yangi g’oya va tashabbuslarini ommalashtirishda muhim o’ringa ega. Shuningdek, ushbu forumlar nafaqat ilmiy muhokamalar maydoni, balki tajriba almashish va o’zaro hamkorlikni mustahkamlash uchun ilmiy davra sifatida ham samarali xizmat qilayotir.

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 7-martdagi tegishli farmoni asosida Innovatsion rivojlanish agentligi hamda Oila va xotin-qizlar qo’mitasi tomonidan tashkil etilayotgan “Olina ayollar” tashabbuskor amaliy va innovatsion loyihalar tanlovi olimlar uchun katta imkoniyatlar eshigini ochdi. Tanlovlardan asosiy maqsad xotin-qizlarni ilm-fanga keng jalb etish, ta’lim, iqtisodiyot va ijtimoiy sohada muammolarni hal qilishga qaratilgan yangi g’oya va ishlarni amalga o’qitish, shuningdek, innovatsion texnologiyalar va ilmiy



mahsulotlar yaratishni rag’batlantirishdan iborat. Bu, o’z navbatida, olimlarning tashabbuskorligini oshirib, ilmiy izlanishlarini tizimli ravishda bajarishga yordam beradi.

Tarix fakulteti olimlari ham ushbu tanlovlarda faol qatnashib, katta yutuqlarga erishmoqda.

Jumladan, “Olina ayollar — 2023” loyihalar tanlovida tarix fanlari doktori S.Jo’rayeva “Qashqadaryo vohasi allomalari va ziyoratgohlari tarixi” nomli loyihasi bilan g’olib bo’ldi. Ushbu loyiha nafaqat tarix va madaniyatni o’rganishda dolzarb ahamiyatga ega, balki mintaqaviy

tarixning muhim jihatlarini ommalashtirishga ham xizmat qiladi. O’tgan yili 11-fevral — Xalqaro olimlar kuni munosabati bilan o’tkazilgan “Olina ayollar — 2024” tanlovidagi “Qadimgi Turon va Mesopotamiya” o’rtasidagi madaniy aloqalar bo’yicha arxeologik manbalar” mavzusidagi loyiham g’olib deb topildi. Mazkur loyihada qadimgi sivilizatsiyalar o’rtasidagi tarixiy aloqalarni o’rganish orqali milliy va xalqaro tarixshunoslikka muhim hissa qo’shish maqsadi ko’zlangan.

Bu yilgi taqdirlash marosimi Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan maxsus forum sifatida, ko’tarinki ruhda tashkil etildi. Tadbirda g’olib loyihalar mualliflari taqdirlandi, ilmiy ishlarnalari keng omмага taqdim qilindi.

Mamlakatimizda gender tenglikni ta’minlash siyosati doirasida olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari, pedagogik faoliyati va xorijiy davlatlarda malaka oshirishi kabi yo’nalishlarga e’tibor har qachongidan-da kuchli. Bu imkoniyatlar ilmsavir ayollarni nafaqat moliyaviy, balki ma’naviy jihatdan ham qo’llab-quvvatlamogda. Biz esa bundan unumli foydalanib, ilmiy izlanishlarimiz va tashabbuslarimiz bilan milliy tariximizni boyitishimiz, ilm-fan cho’qqilariga yanada dadil qadamlar tashlashimiz lozim. Zero, ushbu sa’y-harakatlar nafaqat bugungi kun, balki kelajak avlodlar uchun ham ilmiy meros sifatida qoladi.

(“So‘z latofati” kitobidan)

Dast — qo‘l ekanini bilamiz. Lekin bu forsiy so‘zning boshqa ko‘p ma’nolaridan hammamiz ham xabardor emasmiz. O‘zimiz o‘ng qo‘l, chap qo‘l, qo‘li baland, qo‘lbola, qo‘ligul, qo‘l qo‘ymoq, qo‘llamoq... deganimiz kabi dast ham rangin kalima. Dasta, dastak, dastgoh, dastyor, dastxat, dastpech, zabardast — bular faqat qo‘l ma’nosiga tutash so‘zlar. Bu saxanning taraf, ahvol, xil, nav, g‘alaba kabi mazmunlari bor. Kuch-qudrat, amal-martabani ham ifoda qiladi. Bundan hosila bo‘lib dastur atamasi vujudga kelgan.



bo‘ldik. Turk qardoshlarimiz ham bu ko‘rgilikni boshdan kechirganlar, afsuslarini yashirmaydilar. Vazifa sun‘iy ruslashtirish siyosati natijasida tildan surib chiqarilgan, unutilgan boyligimizni tiklashdir. Tiklaganda ham har tomonlama o‘ylab, mantiq asosida yetti o‘lchab bir kesganimiz yaxshi. Biz yozuv qurolimizni **ruchka** deymiz. **Qalam** deb ruscha **karandashni** aytamiz. Aslida, **ruchkani** qalam desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki **qalam — kushmoq** so‘zidan olingan. Qamishni kesib **qalam** qilingan va uni siyohga tekizib xat yozilgan. Demak, siyohli yozuv quroli — **qalam**. Biz **qalam** deydingan **karandash** ham asl turkiy atama. Ruscha lug‘atlarining barida bu qayd etilgan. Faqat asliyatni birov **qoratosh** desa, birov **qorintosh** deydi. Biz o‘z so‘zimizni qaytarib olsak, yomon bo‘lmasdi. Lekin amalda bu qiyin ish. Shuning uchun ikkala yozuv qurolini **qalam** deb ayttsak, xato bo‘lmas. **Karandash qalamini** ham uchini ochish uchun kesiladi, ya’ni qalam qilinadi.

Balki **xon** degan so‘zimiz ham vaqt kelib stolning o‘mini olar. Axir u qisqa va go‘zal so‘z. **Qo‘qon xoni**, **Xeva xoni** bilan adashtirib yubormasmiz. Biz **tur** va **bor** so‘zlarining olti-yetti ma’nolarini aytib, bir so‘zda ko‘p ma’no bo‘lsa, tilning bezagi, dedik. Ikki ma’nodagi xon ham askiya mavzusi bo‘lsa, ajabmas. **Xonimiz xonlarcha bezatilgan**, desak yoki hazilqash do‘stimizni stolga taklif qilib, **xon huzuriga marhamat**, deya lutf qilsak, ham chiroyli, ham o‘zbekcha bo‘lardi.

Hazrat Navoiy **xon** so‘zini ham yasatilgan stol, ham **ne‘mat** ma’nosida ishlaganlar. **Stol** tushunchasi ko‘p tillarda faqat yog‘och ashyo emas, rizq ma’nosini ham anglatadi. Xon ham shunday. Hazratga quloq tuting: *Xoni husn ul yuz, namakdon og‘zidur, ul xon aro, Nutqi sho‘rangezdin paydo namakdonida tuz.*

Yor chehrasi ne‘mat to‘la xon, og‘zi xon ustidagi namakdon, tuzdon, jonga g‘avg‘oyu ofat keltiruvchi so‘zi esa o‘sha tuzdondagi tuz. Qarangki, Navoiy zamonida ham go‘zallarning tili achchiq, so‘zi nordon bo‘larkan. Chiroyli qochirim barobarida g‘avg‘o ma’nosidagi sho‘rangez bilan tuz ajib she‘riy san‘atga aylangan. Yana bir o‘rinda Hazrat aytadilar: *Qo‘yki, ul yuz xonig‘a nazhora aylay to‘yg‘ucha, Kim, ko‘zum bo‘lmish va qattqi husn ayyomida och.*

Ma’nosi: Ul go‘zal yuz ne‘matiga bir to‘yib olay, qo‘yib ber, chunki jamolini ko‘p zamon ko‘rmay, husn kamyobligidan, visol qahatchiligidan ko‘zim och.

Xon so‘zini har qancha targ‘ib qilmay, bilamanki, u darhol tilimizga singib ketmaydi. Kishi umrida tatib ko‘rmagan taomni yetishdi qandoq qiyin bo‘lsa, umrida aytib ko‘rmagan so‘zni aytishi ham shunday mushkul. Birini ko‘ngil tortmaydi, biriga til kelmaydi. Lekin ona tilimizga o‘zbekcha so‘zlarni olib kirish faqat ko‘ngil ishi emas, burch hamdir. Burchni ado etishda esa uyatchanlikka o‘rin yo‘q. Milliy, vataniy ish shaxdamlik, jasorat va mardlikni talab qiladi.

Erkin VOHIDOV,
O‘zbekiston xalq shoiri

Biz mamlakatimizda so‘z va matbuot erkinligini, axborot olish va uni tarqatish huquqini ta’minlash masalasini inson qadrini ulug‘lash, demokratik jamiyat va xalqparvar davlat qurishga qaratilgan taraqqiyot strategiyamizning muhim va ajralmas qismi deb bilamiz.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

SHAFFOF YOKI QORA

Bugun ijtimoiy tarmoq tevaragida kechayotgan gap-so‘z, bahs-munozara va ularga berilayotgan bahoning mohiyati turlicha. Uning tezkorligi, zamonaviyligi ortidan taqdim qilayotgan afzalliklarni hech kim inkor qilmaydi. Lekin tarmoqqa yoppasiga tobelikning o‘ziga yarasha manfiy va musbat jihatlari bor.

SIZGA QAY BIRI MA’QUL?

Ana shu “lekin” sabab ko‘ngil bir oz xira tortayotganini ham yashirmaylik. Zamonaviy, ayni paytda ijtimoiy tarmoqni “gullatayotgan faollar” ikki qutbga ajralib ketgandek, nazarimda. Bu qutbning birida shaffof, ikkinchisida vazifasi quyosh nuridan himoya qilish bo‘lgan qora ko‘zoynakni o‘zga maqsadda taqib olganlar javlon uradi, xolos. Boshqacha aytganda, pozitiv va negativ front go‘yo.

Atrofdagi voqea-hodisa, yangilik va islohotlar tub mohiyatini asldek ko‘ruvchi va anglovchilar birinchi toifaga kiradi. Ular vaziyatga to‘g‘ri baho beradi. Agar kamchilik yoki noto‘g‘ri yondashuv bo‘lsa, tahlil orqali yotig‘i bilan tushuntiradi. Ikkinchi taraf esa hamma narsaga, hatto murg‘ak bolalar ishtirokidagi samimiy chiqishlarga ham faqat yomon nigoh bilan boqadi. So‘nggi paytlarda ana shu qora ko‘zoynaklilarning “jo‘shqin faoliyati” kishini xavotirga solayotir. Ularning maqsadi, muddaosi, jamoatchilik fikri shakllanishiga ko‘rsatayotgan ta’siri tahlil qilinsa, ko‘p masala oydinlashadi.

Deylik, biror hokim, vazir yo soha mutasaddisi xalq orasida ko‘rinish berdi — jamoat transportida yurdi, umumiy ovqatlanish shoxobchasida tushlik qildi yoki odamlar bilan muloqot paytida o‘zini erkin (norasmiy) tutdi. Bu holatni kimdir oshkora yoki

Ha, men ham shunday o‘ylagandim. Kuzatuvchilar quvonchimga sherik bo‘ladi, kimdir havas qiladi, boshqasi bolajonni duo qiladi, deya umid qilgandim.

To‘g‘ri, shundaylar ko‘pchilikni tashkil qildi ham. Ammo qora ko‘zoynak taqqan bir “do‘stim”ning izohidan keyin postimni o‘chirib tashladim va qaytib insoniy har qanday tuyg‘ularni ijtimoiy tarmoqqa olib chiqmayman, degan qarorga keldim.

U aynan bunday yozibdi: “Ikki yoshli bolaga har xil tillarni o‘rgatishga balo bormi? Undan ko‘ra, Qur’onni, namoz o‘qishni o‘rgating”.

Seskanib ketdim. “Hoy, baraka topkur, sal fahmni ishlat. Bu yerda 12 emas, hali 2 yoshga ham to‘lib ulgurmagan, tili chiqib-chiqmagan go‘dakning sen bilan menikdan ancha rivojlangan zehni haqida gap ketyapti. Buni shunchaki nabirasini ko‘rib zavqi kelgan odam yozyapti”, demoqchi bo‘ldimu, indamadim. Eng ayanchlisi, o‘sha izohdan keyin yana kimlardir shunday kayfiyatga yaqin fikrlarni yozishga harakat qildi.

Gap qayerga qarab ketayotganini ang-layotgandirisiz? O‘sha izoh joylangandan so‘ng kuzatuvchilarda asta-sekin yondashuv o‘zgara bordi, mazmun salbiy tomonga og‘a boshladi. O‘ndan ortiq ijobiy postdan keyin qoldirilgan birgina qitmir izoh muhokamalar tizginini boshqa o‘zanga burib yubordi.



yashirin tasvirga muhrlab, ijtimoiy tarmoq orqali bir zumda tarqatib yuboradi. Tabiiyki, bunday paytda sharhlar yozilib, ko‘pchilik o‘z fikr-mulohazasini boshqalar bilan o‘rtog‘lashgisi keladi. Ana shu joyda shaffof va qora ko‘zoynaklar ishga tushadi.

Uzoqqa bormaylik. O‘tgan oynning so‘nggi chorsanbasii yurtimizda navbatdagi avtomobilsiz kun edi. Bilmadim, bu o‘z tashabbusi edimi yo axborot xizmati maslahat berganimi, xullas, bir mutasaddi faol fuqaro sifatida sog‘lom turmush tarziga amal qilish, ekologiya musaffoligiga hissa qo‘shishga boshqalarni ham chorlab, ishga xizmat mashinasiz kelgani haqida ijtimoiy tarmoqqa surat joyladi. Shundan keyin boshlandi-ku...

“Bo‘lar ekan-ku... Boshqalar ham o‘mak olsa qaniydi...”ga o‘xshagan bir-ikki olqish “Rol o‘ynashni boplabdi... Omma uchun uyushtirilgan surat bu... Amaldorlar avtomobilidan bir daqiqayam voz kechmaydi...” kabi ta’na-dashnomu tanebhar ostonida qolib ketdi. O‘ylab qoldim: nega biz ijtimoiy tarmoqdan foydalanish madaniyatini o‘zlashtira olmayapmiz? Nima uchun bir-birimizni qo‘llab-quvvatlab, tashabbus va xayrli ishlarga qanot berishni o‘zimizga ep ko‘mayapmiz? Nima sabab vaziyatni faqat yomon tomonga buramiz, uning salbiy taraflari ko‘rgimiz keladi?

Bu hammaga ma’lum, barchaning ko‘z o‘ngidagi faktlar. Endi o‘zim bilan sodir bo‘lgan bir misolni keltirmoqchiman. Bundan 4-5 oy avval qandaydir g‘urur tuyg‘usi bilan ijtimoiy tarmoqqa “Ikki yoshga ham to‘lmagan nabiramga onasi o‘zbek, tojik, rus va ingliz tilida 20 gacha sanashni o‘rgatibdi” degan mazmunda post joyladim. Xo‘sh, nima deb o‘ylaysiz?

Shunaqa — inson tabiati qiziq va murakkab. Yaxshi amalni o‘rgatishga 10 ta saboq talab etilsa, yomon narsa uchun bittasi kifoya ekan.

Hozir aksariyat odam jurnalist va blogger tushunchasini aralashtirib yuboradi. Qo‘lida smartfoni bo‘lgan kishi borki, bloggerlik qilyapti, aslida. Har holda o‘zini blogger deb his etyapti. Ayrimlar atrofga faqat qora ko‘zoynak ortidan boqib, og‘ziga, xayoliga kelganini aytish va yozishdan tiylmayapti. Salbiy post qo‘ya olmasa, hovurini izoh qoldirish orqali bosyapti.

Afsuski, bu masala nafaqat bizda va hozir, balki butun dunyoda va azaldan muammo bo‘lib kelgan. O‘z vaqtida AQSH Prezidenti Teodor Ruzvelt jurnalistlarni “jamiyat farroshlari” deb atar ekan, ularga taxminan bunday murojaat qiladi: “Agar jurnalist faqat jamiyatdagi kamchiliklar bilan shug‘ullanaversa, dimog‘i bitib, ko‘zi shunga o‘rganib, beli bukhayib, faqat tirnoq ostidan kir izlaydigan maydakashga aylanib qolishi mumkin. Unga ora-sira qaddini rostlashini, boshini baland ko‘tarishini, yulduzli, quyushu oyli osmonga ham ko‘z tashlab qo‘yishini maslahat beraman”.

Bu ijtimoiy tarmoqlar mavjud bo‘lmagan, jamiyatda faqat bosma OAV javlon urgan paytning gapi.

To‘g‘ri, mamlakatimizda barcha siyosiy huquqlar qatorida vijdon va e’tiqod, so‘z va matbuot erkinligini ta’minlash, fuqarolarning axborot olish, undan foydalanish va tarqatish huquqlarini kafolatlash borasida qilingan va qilinayotgan ishlarni bitta maqolada jamlash murakkab yumush.

Qonunchilikka ko‘ra, mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari erkin. Har kim, agar qonunda

Hozir aksariyat odam jurnalist va blogger tushunchasini aralashtirib yuboradi. Qo‘lida smartfoni bo‘lgan kishi borki, bloggerlik qilyapti, aslida. Har holda o‘zini blogger deb his etyapti. Ayrimlar atrofga faqat qora ko‘zoynak ortidan boqib, og‘ziga, xayoliga kelganini aytish va yozishdan tiylmayapti. Salbiy post qo‘ya olmasa, hovurini izoh qoldirish orqali bosyapti.

boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, ommaviy axborot vositalarida chiqish, o‘z fikri va e’tiqodini oshkora bayon etish huquqiga ega. Davlat ommaviy axborot vositalarining faoliyati va axborotdan foydalanish erkinligini, mulk huquqini, davlat organlarining g‘ayriqonuniy qarorlaridan, ular mansabdor shaxslarining g‘ayriqonuniy harakatlardan (harakatsizligidan) himoya qilinishini kafolatlaydi. Jurnalistlarning faoliyatiga to‘sqinlik qilish yoki aralashish taqiqlanadi.

Keyingi yillarda yurtimizda ro‘y berayotgan tarixiy o‘zgarishlar natijasida ommaviy axborot vositalarini erkin fikr minbariga, xalqimiz manfaatlarining faol himoyachisiga aylantirish uchun mustahkam huquqiy zamin, ijtimoiy muhit yaratildi. Bugun avval tasavvurimizga sig‘magan tushuncha va hodisalar hayotimizning ajralmas qismiga aylandi.

So‘z erkinligini ta’minlash, erkin fikr yuritish uchun huquqiy himoyani, davlat idoralarining ochiqchiligi kuchaytirish, bloggerlik mavqeini ko‘tarish, barcha toifadagi ommaviy axborot vositalari xodimlarini himoya qilish borasida salmoqli amaliy ishlar qilindi. Natijada faol matbuot xalq orasida hurmat-e’tibor qozonib, “to‘rtinchi hokimiyat” darajasiga ko‘tarilib bormoqda. Ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda qanday yangilik paydo bo‘lmasin, turli bahslar, fikrlar, tortishuvlar ko‘rinishida ushbu axborotga munosabat bildirilmoqda. Bu ham yurtimiz ommaviy axborot vositalari va fuqarolarning faollashib borayotganini ko‘rsatadi. Bunda suiste’molchilikka yo‘l qo‘yish mutlaqo o‘zini oqlamaydi.

Bularga javoban barchamizdan mas’uliyat, vaziyatning xolis tahlili, o‘zaro hurmat va ishonch talab etiladi. Nazarimda, bunga “labbay” deb javob berish u qadar qiyin emas.

Bir latifa bor: ayol ertalab kechoq uyg‘ongach, xona derazasidan tashqariga qarab, turmush o‘rtog‘iga “Dadasi, bugun quyosh har kungidanam charaqlab chiqibdi-ya”, desa, bunga javoban er: “Bugun ham har doimgi quyosh, faqat barvaqt turib, kir bo‘lib ketgan derazalarni artib qo‘ygandim”, degan ekan.

Yostiql boy va faqimning, katta va kichikning, shahzoda va go‘riqchilarning boshini ko‘taradi. Lekin unda faqatgina vijdoni xotirjamlar sokin uyquga keta oladi. Shunday ekan, qalbmiz derazalarini vaqti-vaqti bilan tozalab, borliqni boricha ko‘rish va xotirjam vijdon bilan uyquga ketish saodati barchamizga nasib qilsin. Zero, ajdodlarimizdan qolgan manbalarda “Ko‘rinishing bilan faxrlanma. Chunki uni sen yaratmagansan. Nasabing bilan ham faxrlanma. Chunki uni sen tanlamagansan. Lekin axloqing bilan faxrlan. Chunki unga ziynatni faqat o‘zing bergansan”, deyilgan. Bu hikmatni esa, albatta, bilasiz.

Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatl chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** — 546.
36390 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Munajat Mo‘minova
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘Za yakuni — 02:20

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e‘lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz

Web-sayt: www.yuz.uz; (71) 233-47-05

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.